

MILLIY ARMIYAMIZ YANGI O'ZBEKISTONNING MUSTAHKAM QALQONIDIR!

VATANPARVAR

KASBIY FAOLIYATNI
DAVOM ETTIRISHDA
QIMMATLI MANBA

4-5

●Gazeta 199

qa boshlagan ● 2023-yil 17-noyabr, №46 (3056)



www.mv-vatanparvar.uz

ot@umail.uz
parvar_uz
zirligi

facebook.com/mudofaavazirligi
instagram.com/mudofaavazirligi
youtube.com/c/uzarmiya

RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

**BAYROG'IMIZ –
FAXRIMIZ,
G'URURIMIZ!**





JANGOVAR HARAKATLARGA

Er yigit uchun yurt tinchligi va osoyishtaligini himoya qilish muqaddas burchdir. Mudofaa vazirligi tomonidan zaxiradagi harbiy xizmatga majbur fuqarolar bilan o'tkazilgan yig'inda ham bu o'zining amaliy ifodasini topdi.



Bir necha kun davomida Markaziy harbiy okrugning dala-o'quv maydonlarida zaxiradagi harbiy xizmatga majbur fuqarolar bilan jangovar o'q otish va taktik o'quvlarni o'z ichiga olgan yig'in o'tkazildi. O'quv signali berilishi bilan qo'shinlar va boshqaruv organlari jangovar shaylikning yuqori darajalariga keltirildi hamda ular doimiy joylashgan hududdan jangovar mashg'ulotlar o'tkazish hududi tomon marshni amalga oshirdi.



YAQINLASHTIRILGAN MASHG'ULOT



Dastavval yig'in ishtirokchilari yakka tartibda tayyorgarlik mashqlarini bajardi. Ularning birgalikdagi uyg'un harakatlarini tashkil qilish maqsadida o'q otish, maxsus-taktik tayyorgarlik, jangovar mashinalarni boshqarish, ommaviy qirg'in qurollardan himoyalanish hamda taktik, tibbiy tayyorgarlik bo'yicha mashg'ulotlar tashkil etildi. Mazkur mashg'ulotlar guruh, vzvod va batalyon tarkibida o'tkazildi. O'quv mashg'ulotlari yig'in ishtirokchilarining barcha turdagи qurollardan amaliy o'q otish mashqlarini o'z ichiga olgan batalyon taktik o'quvi bilan yakuniga yetdi.

Jangovar harakatlarga yaqinlashtirilgan mashg'ulotlarda bo'linmalarning tayyorgarlik jihatlari va o'zaro uyg'unlikdagi harakatlari namoyish etildi.

Bu orqali berilgan vazifalar to'liq bajarilishi ta'minlandi.

Shuningdek, o'quv mashqlar davomida zaxiradagi harbiy xizmatga majbur fuqarolarning axloqiyruhiy tayyorgarligi va jangovar ruhini oshirishga qaratilgan madaniy-ma'rifiy va ommaviy sport tadbirlarini tashkillashtirishga alohida e'tibor qaratildi.

Yig'in yakunida bo'lib o'tgan tantanali tadbirda o'zlarining ishonchli harakatlari bilan har lahzada Vatan himoyasi uchun doim shay bo'lgan yig'in ishtirokchilariga esdalik sovg'alar va navbatdagi harbiy unvonlar topshirildi.

Katta leytenant Islomjon QO'CHQOROV



KASBIY FAOLIYATNI DAVOM ETТИRISHDA

Chirchiq umumqo'shin dala-o'quv maydonida respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, xo'jalik birlashmalari hamda boshqa tashkilot rahbarlari uchun safarbarlik yig'ini o'tkazildi. Deyarli bir hafta davomida davlat boshqaruvi organlari rahbarlari jahon va mintaqadagi harbiy-siyosiy vaziyat bo'yicha tahliliy ma'lumotlar, Qurolli Kuchlarni rivojlantirishda harbiy-ma'muriy sektorlarning faoliyati va ahamiyati bilan tanishtirilib, harbiy aloqa, birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, harbiy-texnik sport bellashuvlari hamda harbiy qurollardan foydalanish tayyorgarligidan o'tdi. Shuningdek, yig'in davomida ishtirokchilarga jangovar va zirhli texnikalarning boshqarilishi, ekipajlar joylashuvi, ulardagi qurol va qurilmalarni ishlatalish haqida batafsil tushunchalar berildi.



Voleybol, minifutbol, stol tennisi, tosh ko'tarish, turnikda tortilish, pichoq uloqtirish maydonlarida, AK-74 avtomati va Makarov to'pponchasidan otish nuqtalarida esa har bir qatnashchi o'z imkoniyatlarini namoyish qilish orqali raqibiga qarshi murosasiz babs olib bordi. Har kuni ertalabki badantarbiya mashg'ulotlaridan so'ng bunday do'stona sport bellashuvlari, jangovar qurollardan otish musobaqlarining o'tkazilishi safarbarlik yig'inining harbiy-vatanparvarlik ruhida o'tishini ta'minladi. Bir necha kun milliy armiya hayoti bilan yashagan davlat boshqaruvi organlari rahbarlari mamlakatimiz mudofaa qudratini o'z tanalarida his etish imkoniyatiga ega bo'liddi. Qisqa qilib aytganda, ular o'z xizmat faoliyatini harbiy xizmatchilarga xos kun tartibi, harbiylar yotoqxonasi va oshxonasi, o'quv nuqtalaridagi mashg'uotlarga almashtirishdi.

Safarbarlik yig'ini yakunida ishtirokchilar Mudofaa vazirligi Markaziy harbiy klinik gospitali va Qurolli Kuchlar Harbiy tibbiyot akademiyasi faoliyati bilan yaqindan tanishdilar. U yerda mudofaa vaziri o'rinnbosari general-major Hamdam Qarshiyev davlat boshqaruvi organlari rahbarlarining dala-o'quv maydonidagi taassurotlari bilan qiziqdi va bu kabi hamkorliklar davlatimiz qudratini yanada oshirishini ta'kidlab o'tdi.

Shundan so'ng Qurolli Kuchlar akademiyasida safarbarlik yig'ini qatnashchilariga yig'inni to'liq o'taganlik bo'yicha sertifikat, eng faol qatnashchilarga esa Mudofaa vazirligining faxriy yorliq hamda musobaqlarda g'olib bo'lgan jamoalarga kuboklar tantanali ravishda topshirildi. Taqdirlash marosimida qatnashgan O'zbekiston mudofaa vazirining birinchi o'rinnbosari –





QIMMATLI MANBA



Qurolli Kuchlar Bosh shtabi boshlig'i general-major Shuxrat Xalmuxamedov respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, xo'jalik birlashmalari hamda boshqa tashkilot rahbarlari mamlakatimiz rivojidagi ishonchli jamoa ekanligiga alohida e'tibor qaratib, ularning kelgusidagi ishlariga muvaffaqiyat tilab qoldi.

Farhod NURMUHAMMEDOV, "O'zcharmsanoat" uyushmasi raisi o'rinosari: – Vatanimiz tinchligini qo'riqlayotgan harbiy xizmatchilarning mashaqqatli va mas'uliyatli vazifasini qisman bo'lsa-da, o'z tanamizda his qildik. Shuning uchun mana shu yig'inda qatnashgan deyarli barcha o'g'lini harbiy kasbga yo'naltirishni reja qilgan bo'lsa, ajab emas. Men shu bugundan boshlab, uchta o'g'limdan bittasiga ona yurt himoyasi yo'lida xizmat qiladigan sharafli kasb egasi bo'lishi uchun imkoniyat yaratib berishni niyat qildim.

Mehroj USMONOV, "O'zkimyosanoat" AJ xodimi: – Ushbu yig'inda qatnashishimni aytishganda, to'g'risi bolalarcha quvonib ketdim. Tibbiy-ko'rikdan o'tib, egnimga harbiy libos kiygunimga qadar ortga qaytarishmasmikan deya xavotirlandim ham. Yig'inning birinchi kunidanoq milliy armiyamiz haqida ko'p taassurotlarga ega bo'ldim. O'qotar qurollardan otish imkoniyati berilganda boshqaruva organi vakillari uchun bunday yig'inlar bejiz tashkil etilmaganligini anglab yetdim.

Umid PAZILXANOV, Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi davlat asllik darajasi nazorati inspeksiyasi boshlig'i o'rinosari:

– Besh kunlik yig'in ko'z yumib ochguncha o'tib ketadi, deb o'ylamagandim. Shunga qaramay, harbiy hayot mas'uliyatiga ko'nikib, boshqa soha vakillari bilan amaliy tajribalar almashish imkoniyatiga ega bo'ldim. Olingan tajribalar kasb faoliyatimni davom ettirishda qimmatli manba bo'lib qolishiga ishonchim komil. Eng muhim, mamlakatimiz mudofaa siyosati haqida kerakli ma'lumotlarga englab yetdim.

Mirzaboy UTENIYAZOV, O'zbekiston Respublikasi Narkotik moddalarni nazorat qilish milliy axborot tahlil markazi bo'lim boshlig'i: – Qaniydi tashkilotchilar yig'in muddatini yana bir haftaga uzaytirishsa edi. Endigina o'zimni harbiy xizmatchilardek his qila boshlagandim.

To'g'ri, o'zimning ish faoliyatim ham harbiy sohaga bevosita aloqador. Lekin kundalik xizmat faoliyatim har doim dala-o'quv maydonidagi bunday mash'ulotlardan iborat emas. Ko'pchilik qatorida o'z xohishim bilan yig'inda qatnashish istagida bu yerga kelganimga afsuslanmayman. Chunki bir umrga esdan chiqmaydigan taassurotlarga ega bo'ldim.

Hasanboy TOLIBJONOV, "O'zbekgidroenergiya" AJ iqtisodiy tahlil, moliya rejalashtirish boshqarmasi boshlig'i: – Chirchiqdan poytaxtga qaytish chog'ida hamma bir-biriga bildirmasdan ortga umid bilan qarab qo'ygan holatdan qattiq ta'sirlandim. Chunki o'tgan besh kun biz uchun naqadar qadrli bo'lib qolganligini so'z bilan ifodalash qiyin. Tadbir yakunida general-major

Shuxrat Xalmuxamedov tantanali marosimda sertifikatlami topshirganda, egnimdagи harbiy libosdan qanchalik faxrlanganimni tasvirlab bera olmayman.



BILIM OSHDI, TAJRIBA ORTDI

Shimoli-g'arbiy harbiy okrug harbiy xizmatchilari tog'li hududlarda harakatlanish, yashab qolish, qoyalarga chiqish va tushish, to'siqlarni yengish, arqon yordamida bir qoyadan ikkinchisiga o'tish kabi mashqlarni bajarib, amaliy mashg'ulotlarda ishtirok etdi.



Ma'lumki, amaliy mashg'ulotlarning samaradorligi mustahkam nazariy bilim va tinimsiz izlanishlarga bog'liq bo'ladi. Shimoldagi o'g'lonlar ham ana shu qoidalarga amal qilib, ko'nikmalarini mustahkamlashda davom etmoqda. Ular kun-u tun bilimlarini oshirib, tajriba orttimoqda. Bu galgi mashg'ulotning shunisi ahamiyatli, azamatlar qoyaga ko'tarilish va tushish, arqonga osilgan holda sun'iy va tabiiy to'siqlarni yengish, xullas tog'li sharoitda tezkor harakatlanish imkoniga ega bo'lish uchun osondan murakkablashgan mashqlarni ado etishdi.

Aslini olganda harbiy xizmatchilarning bu kabi mashg'ulotlarda faol ishtirok etishida

harbiy qismda yaratilgan o'quv joylari muhim ahamiyat kasb etyapti. Bu joyda yurt himoyachilarini tog'anjom-aslahalari imkoniyatlardan to'liq foydalanib, dastlabki kasb sirlarini o'rganyapti. Malakali yo'riqchilar harbiy xizmatchilarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish, vazifalarni tezkor bajarishda e'tibor qaratish lozim bo'lgan jihatlarni chuqur o'qitmoqda.

Nazariy jihatdan ko'rib chiqilgan va mustahkamlangan bilim hamda ko'nikmalar Qoraqalpog'istonning Qoratov tog' tizmalarida amaliy tarzda sinovdan o'tkazildi. Harbiy xizmatchilarni osmono'par qoyalar va qir-u adirlarda arqonda tugun hosil qilish, ishonchli tayanch joyini belgilash, qoyaga

ko'tarilish va tushish jarayonlarida qo'l-oyoqlarga kuchni to'g'ri yo'naltirish kabi jihatlarga ahamiyat qaratishdi.

Ta'kidlash joizki, har bir o'quv joyida bajarilgan mashqlar bir-birini takrorlamadi. Xususan, qariyb 100 metrni tashkil etgan qoyalar orasidagi masofani arqon yordamida bosib o'tish uchun ishtirokchilarning ham jismoniy imkoniyati, ham ruhiy tayyorgarligi mustahkam bo'lishi kerak. Yigitlar bu mashg'ulotda kuchli ekanliklarini namoyon eta olishdi.

Tog' tayyorgarligi harbiy xizmatchilarni uchun qanday bo'linmada xizmat olib bormasin, kerakli va muhim mashg'ulot hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, ularga tog'da harakatlanishning muhim sirlari, e'tibor qaratish kerak

bo'lgan jihatlar qadam-baqadam o'rgatiladi va o'qitiladi. Bu esa cho'l va tog'li, issiq hamda sovuq havo xullas, murakkab vaziyatlarda ham azamatlarga qiyalmay harakatlanish, o'z vazifasini samarali ado etish imkonini beradi. To'g'ri qaror qabul qilishda hamda samarali sanaladi, bunday o'quvlar.

Xullas, yo'lida uchragan har qanday to'siq va qiyinchiliklarga bardoshli shimol qalqonlari tog' tayyorgarligi mashg'ulotlarida har tomonlama toblanmoqda.

Kichik serjant
Abdullahjon UMARALIYEV,
Shimoli-g'arbiy harbiy okrug
matbuot xizmati

Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurti 1918-yil 16-noyabrdan tashkil topgan.

BILIM YURTI 105 YOSHDA



Bilim yurtida 8 ta ixtisoslik bo'yicha ofitser kadrlarni tayyorlash yo'liga qo'yilgan:

- maxsus operatsiya kuchlari;
- havo-desant qo'shnirlari;
- artilleriya;
- tank qo'shnirlari;
- avtomobil bo'linmalari;
- raketa-artilleriya qurollari va o'q-dorilari;
- tank qo'shnirlari (*muhandis*);
- zenit-raketa qo'shnirlari.



Bugun jahon hamjamiyati tomonidan global ekologik muammolarga qarshi kurashish va barqaror rivojlanishga erishish yo'lida izchil chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Afsuski, chegara bilmas, hudud tanlamas ekologik muammolar mintaqamizni ham chetlab o'tmayapti. Shu bois so'nggi yillarda jamiyatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jarayonida tabiiy muvozanatni ta'minlashga alohida e'tibor qaratilib, ekologiya sohasidagi ishlarni tashkil etish borasida huquqiy va tashkiliy asoslar zamon talabidan kelib chiqib takomillashtirildi.

Oxirgi yillarda bu yo'nalişda Prezidentimizning 20 ga yaqin farmon va qarorlari, davlat dasturlari, strategiyalar qabul qilindi. Sohada ishlarni tashkil etishning moliyaviy manbalari aniq belgilab berildi.



BARCHANI BIRLASHTIRAYOTGAN “YASHIL MAKON”

Shu kabi maqsadlar yo'lida Toshkent viloyati Zangiota tumanida joylashgan harbiy qism qo'mondonligi tomonidan harbiy qismiga qarashli hududlar va harbiy shaharcha hududlariga belgilangan reja asosida hafta davomida jami 800 donaga yaqin mevali va manzarali ko'chat ekish tadbirlari bo'lib o'tdi. Loyiha doirasida yo'l va ariq bo'yularini tozalash, bo'sh turgan joylarni ko'kalamzorlashtirish, yangi bog'lar yaratish hamda yashil hududlarni kengaytirish ishlari ham jadallik bilan olib borilmoqda.

Shuningdek, Mudofaa vazirligi markaziy apparati harbiy xizmatchilari Toshkent viloyatida joylashgan Qiziltog' aholi yashash punktingining vazirlik uchun ajratilgan hududiga ko'chat ekish ishlari ham allaqachon boshlab yuborildi. Ob-havo sharoiti va mahalliy hudud iqlimidan kelib chiqib, ko'p SUV talab etmaydigan va tez unadigan minglab ko'chatlar yerga o'tqazildi. Ta'kidlash kerakki, ekligan har bir ko'chat nazorat ostida bo'lib, ularning barchasi tomchilab sug'orish texnologiyasi ostida SUV bilan ta'minlanadi.

Bundan tashqari, Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va Harbiy havo kuchlari



qo'mondonligi tomonidan Toshkent viloyati Qibray tumanida joylashgan harbiy qism hududida ham ko'chatlar ekildi.

Shu kabi maqsadlar yo'lida Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va Harbiy havo kuchlari qo'mondonligi tomonidan Toshkent viloyati Qibray tumanida joylashgan harbiy qism hududiga ham ko'chatlar ekildi.

Shuningdek, Mudofaa vazirligi sport markazi sportchilari ham markazga tegishli hududlardagi yo'l va ariq bo'yulari, bo'sh turgan joylarni ko'kalamzorlashtirish, yangi bog'lar yaratish hamda yashil hududlarni kengaytirish ishlarini olib borishdi. Xususan, “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida kapitan Ruslan Nurudinov, kichik serjantlar Niyaz Pulatov, Ulug'bek Rashitov, Malika Hakimova kabi nomdor sportchilar va yosh sportchilar tomonidan 120 dan ortiq mevali va manzarali daraxt ko'chatlari ekildi.

Eng asosiysi, bu loyiha butun respublikamiz bo'yicha ommalashdi va o'zida minglab ko'ngillilarni jamlay oldi.

Kapitan Bobur ELMURODOV

Toshkent viloyati Qibray tumanidagi 30-umumta'lim mактабида "Rahbar va yoshlар" uchrashuvi bo'lib o'tdi. Unda Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va Harbiy havo kuchlari qo'mondoni o'rнbosari polkovnik Davron Usmonov muddatli harbiy xizmatchilar hamda o'quvchi-yoshlар bilan muloqot qildi.



Dastlab tadbirni ochib bergan maktab direktori Nargiza Qobilova mazkur ta'lim maskanining shonli tarixi, buguni, o'quvchilarning shu kungacha erishgan va erishayotgan yutuqlari haqida so'zlar ekan, albatta, bu muvaffaqiyatlar zamirida yurtimizda hukm surayotgan tinch va osuda hayotning bemisl hissasi hamda shunday bebaho ne'matni asrab-avaylab kelayotgan harbiy xizmatchilarning zahmatli mehnati borligini e'tirof etdi.

Tadbirning muhim qismi polkovnik Davron Usmonov bilan bo'lgan suhabat o'ziga xos taassurotlarga boy bo'ldi, desak yanglishmaymiz.

Qadrlı mehmon o'quvchilarga o'zining harbiy kasb bilan uyg'un hayoti, xizmat faoliyati haqida so'zlab berdi. Uning milliy armiyamizda amalga oshirilayotgan islohotlar, oliy harbiy ta'lim muassasaları, u yerga o'qishga kirish tartibi, harbiy xizmatchilarga davlatimiz tomonidan berilayotgan e'tibor va g'amxo'rlik, harbiy kasb nufuzi

TAASSUROTLARGA BOY KUN



borasida bildirgan fikr-mulohazalari ham o'quvchilarni befarq qoldirmadi.

Samimi savol-javobga boy o'tgan muloqot ko'pchilik yoshlarning qalbida yangi orzularga eshik ochgan bo'lsa, yana ko'pchilik yoshlardagi ezgu maqsadni yanada mustahkamlagani bilan qimmatli bo'ldi.

Tadbir davomida faol o'quvchi-yoshlarga "O'zbekiston armiyasi" jurnalining tarqatilishi ularning harbiy soha haqidagi bilimlarini yanada oshirishga ko'maklashishi, shubhasiz.

San'atkorlar ijro etgan harbiy-vatanparvarlik ruhidagi kuy-qo'shiqlar kechaga fayz bag'ishladi.

**Podpolkovnik
Gulnora HOJIMURODOVA**



E'TIBOR, IMTIYOZ VA IMKONIYATLAR

Bugungi kunda mamlakatimiz bo'y lab "Yangi O'zbekiston yoshlari, birlashaylik!" shiori ostida o'tkazilayotgan "Qo'mondon va yoshlari" hamda "Rahbar va yoshlari" uchrashuvi ko'tarinki ruhda o'tkazib kelinmoqda. Xususan, Markaziy harbiy orkug qo'shinlari qo'mondonligi tomonidan navbatdagi uchrashuv Samarqand viloyatining olis hududlaridan biri bo'lgan Nurobod tumanida o'tkazildi.

Harbiy okrug qo'shinlari qo'mondonining birinchi o'rнbosari – shtab boshlig'i polkovnik Qahramon Ochilov hamda Nurobod tumani hokimining yoshlari siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha o'rнbosari Sirojiddin Xo'jamiyorov bilan samimiy va ko'tarinki kayfiyatda o'tgan uchrashuv yoshlarning davlatimiz rahbari tomonidan yoshlarga berilayotgan e'tibor, imtiyoz va imkoniyatlardan keng foydalanishi va milliy armiyamiz saflarida xizmat qilish istaklarini yanada oshirishga qaratilgani bilan ahamiyatlari bo'ldi.

Dastlab yoshlarga harbiy orkug qo'shinlari qo'mondonligi tomonidan Qurolli Kuchlarimiz saflarida xizmat qilish va oliy harbiy ta'lim muassasalarida tahsil olish to'g'risida ma'lumotlar berildi. Tadbir yoshlarning sharaflı kasb egasi bo'lish, Vatanga sadoqat va fidoyilik bilan xizmat qilish kabi hislarni uyg'otdi.

Shuningdek, yoshlarning harbiy va turli sohadagi qiziqishlariga oid savol hamda



murojaatlari atroflicha o'rganib chiqildi va tegishli mutaxassislar tomonidan tushunchalar berib o'tildi.

Uchrashuv davomida tumanning eng faol yoshlari, ya'ni "Vatan tayanchi" bolalar va o'smirlar harbiy-vatanparvarlik harakatiga a'zo bo'lgan 100 nafar yoshta ko'krak nishonlari hamda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda munosib hissa qo'shgan bir guruh chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchilariga okrug qo'mondonligining tashakkurnomasi va esdalik sovg'alari topshirildi.

Uchrashuvdan so'ng tuman yoshlari uchun harbiy-vatanparvarlik tadbiri tashkil etildi. Unda Samarqand garnizonidagi harbiy qism harbiy xizmatchilari tomonidan qo'l jangi, faxriy qorovulning saf chiqishlari, harbiy texnika va qurol-aslahalar ko'rgazmasi namoyish etilib, harbiy orkestr jamoalarining ona Vatanni tarannum etuvchi kuy-qo'shiqlari tadbiriga o'zgacha shukuh bag'ishladi.



**Markaziy harbiy okrug
matbuot xizmati**



BOYSUNNING BAHODIR O'G'LONI

– Yo'q, men mактабга биринчи бо'lib боришим керак. Shuning учун hammадан yaxshi o'qiyapman. Nonushta qilib olsam bo'lgани.

– Tavba, akalaringni ma k t a b g a uyg'otolmay halak bo'lardim. Se n boshqacha chiqding-da.

Har kuni erta uyg'onasan...

Ana, sho'x-shaddod Mashrabjon maktabdan bir to'p o'rtoqlari bilan qaytib keldi.

– Onajon, issiq non yopdingizmi? Hammamizning qornimiz och, non bering.

– Hozir... hozir, bolam, – bu holga ko'nikib ketgan Himmat opa barkashdek nonni ushatib, bolakaylarga tarqatishga tushdi...

Mana, u o'smir yoshda. Doim orqasi to'la o'rtoq. Maktabdan kela solib, sumkasini qo'ydi-da, tandirga somsa yopayotgan onasining oldiga shoshildi.

– Onajon, qachon pishadi somsalar?

– Kutib tursang, hozir pishadi, – xayoli do'stlarida bo'lgan betoqat o'g'lining dardini tushungan ona, ko'cha darvozasidan birin-ketin bosh chiqarib turgan o'rtoqlari tomon jilmayib qo'ydi.

– Hech kim somsani sizchalik shirin pishira olmaydi, mehribonim, – Mashrabjon onasiga xushomad qilish asnosida, savatga uzib tashlayotgan somsalarni ko'chaga tashiy boshhladi. – Bobur bilan Sheraliga olib bordim, endi Nurali bilan o'zimga.

– Hoy, qo'ling kuyib qoladi, hovlidagi so'rida o'tirib, yesalaring bo'lmaydim? – qaynoq somsalarini u qo'lidan bu qo'liga olib "kuf-kuf"lab ketayotgan o'g'linig orqasidan gapirgancha qoldi Himmat opa. – Tavba, bu bola kimga o'xshadi-ya, o'rtoqlarisiz tomog'idan ovqat o'tmaydi...

Mashrabjon umumta'lum maktabini tamomlash arafasida. Maqsadi – harbiy xizmatchi bo'lish.

– Toshkentdagagi harbiy bilim yurtiga hujjat topshirmoqchiman, – ota-onasiga yuzlandi u. – Sizlar rozi bo'lgansiz, sportdan yaxshi tayyorgarlik ko'rganman, imtihonlardan albatta o'taman. Bugunoq tuman mudofaa bo'limiga borib uchrashaman.

– Mayli, omadingni bersin, bolam! – duo qildi Hurram aka.

Afsuski, o'shanda o't-olov yigitga bilim yurtiga kirish nasib etmadi. Kutilmaganda, oyog'i lat yeb, jismoniy tayyorgarlikdan o'ta olmadi. Ammo u ortga chekinmadi. Bir yigitga yetmish hunar oz, deganlaridek, Boysun tumanidagi Qishloq xo'jaligi kollejiga o'qishga kirdi. Kollejini tugatgach, muddatli harbiy xizmatga

otlandi. Xizmatdan so'ng kontrakt asosida posbonlik burchini davom ettirdi...

– Mashrabjon bolaligida rosa sho'x bo'lgan, – dilbandining unutilmas xotiralarini biz bilan bo'lishadi Himmat opa. – To'rt-besh yosollarida faqat harbiylarga xos o'ynichoqlar o'ynardi. Miltiq, tank, pistolet, askar kabi o'ynichoqlar oldirardi. Ofitser bo'lishni niyat qilgandi, bolam.

Askarlik xizmatini Toshkentda o'tadi. Termizdagagi harbiy qismga kontrakt asosida oddiy askar bo'lib xizmatga kirdi.

Har hafta uyga kelardi. U juda ozoda, harbiy libosiga e'tiborli edi. "Qora shoh" degan atirni yaxshi ko'rib, doim o'shani sepib yurardi. Mashrabjonning uyga kelganini qo'shnilar mana shu atir hididan sezishardi. Har kelganida "Onajon, ellikka kirapsiz, ish qilaverlang, sog'lig'ingizni o'ylang!" deb ko'p gapirardi. Bir gal kelganida men uchun soch bo'yog'i olib kelib, opalariga onamning sochini bo'yab qo'yinglar, deb tayinlabdi. Jigarlariga mehribonligini aytmaysizmi. Mashrabjon olamdan o'tgandan keyin ukasi Sanjar ruhan tushkunlikda kasal bo'lib qoldi. Kamgap, hardamxayol, atrofdagilar bilan gaplashmaydi. O'ziga keltirib olishimiz oson kechmadi...

Himmat opa gapirgani sari Mashrabjon bilan bog'liq yangi-yangi xotiralar chiqib kelaveradi. 22 yoshida bu dunyoni tark etgan o'g'loni hamon onanining yurak to'rida yashamoqda.

2001-yilning 14-iyuli. Sariosiyo tumanining tog'li hududlarida chegarani buzib o'tgan jangarilarni topish maqsadida Mashrabjon va safdoshlari razvedka qidiruv harakatlariga jaib etildi. U professional harbiy xizmatchi sifatida tog'larda olib borilgan jangovar mashqlarda avval ham ishtirok etgan, shaxsiy tarkibga o'rnak bo'lgan. Bu gal esa... dushman pistirmasiga duch kelib, safdoshlariga xabar berayotganda bosqinchilarning o'qi uni yaraladi. Shunga qaramay, qo'l granatasini iblislar uyasini tomon uloqtirdi. Harbiy xizmatchilar tomonidan terrorchilar to'dasi yo'q qilindi. Bu payt Mashrabjon Jo'rayev qahramonlarcha halok bo'lgandi.

Sinfoshi va safdoshi Shavkat Jo'lliyevning xotiralari:

– Men do'stim Mashrab bilan mактабда ham, Qishloq xo'jaligi kollejida ham birga o'qiganman. U doim a'lochilar safida bo'lgan. Ayniqsa, sportni sevardi, ko'p shug'ullanardi. Harbiy qismida esa qo'rmasligi, jur'atliliq bilan safdoshlarimiz orasida ajralib turardi. Bir necha bor jangovar topshiriqlarni bajarishda shaxsiy tarkibga o'rnak bo'lgan. 2001-yilning 14-iyuli aslo yodimdan ko'tarilmaydi. Pistirmadagi

dushman Mashrabning sezib qolganini bilgan zahoti uni o'qqa tutgan. Qo'lidagi granatani uloqtirib, keyin yiqildi do'stim. U ko'z oldimda jon berdi. Hayotda bundan-da, ayanchli holat bo'limasa kerak. Aqlimni tanibmanki, men u bilan birga edim. U umrbod mening qalbimda, xotiramda yashaydi.

Mardlar siyosasi barhayot, deyishadi. Bugun "Jasorat" medali sohibi Mashrab Jo'rayev o'qigan 27-umumta'lum mактabiga byusti o'natilgan, ma'naviyat xonasida qahramon yigitga bag'ishlangan xotira burchagi tashkil qilingan. Uning xotirasiga bag'ishlab, sport musobaqalari o'tkazib turiladi. Vatanparvarlik tadbirlarida uning nomi, albatta tilga olinadi, qahramonligi yosh avlodga o'rnak qilib ko'rsatiladi. O'quvchilar va ustozlar Mashrabjon ulg'aygan xonadonda bo'lib, ota-onasi bilan suhbatlar o'tkazishadi.

– O'g'limning olamdan o'tganiga 22 yildan oshgan bo'lsa ham davlatimiz bizni unutgani yo'q, doim e'tibor ko'rsatib kelishmoqda. Katta-katta tadbirlarga taklif qilishadi, e'zozlashadi. Bu yil mana shunday tadbirlardan birida Prezidentimiz bilan ko'rishdim, g'amxo'rliklari uchun yelkalariga qoqib qo'ydim. Buning uchun Yurtboshimizdan, bizdan xabar olib turgan barcha mehribon insonlardan cheksiz minnatdormiz.

Jo'rayevlar xonadoniga davlat va jamoat tashkilotlaridan, harbiy qismidan, mudofaa ishlari bo'limlaridan tez-tez mehmonlar tashrif buyuradi, yaqinlari davrasida Mashrabjoni xotirlashadi.

Ana, 45 yoshni qarshilayotgan do'stlari Bobur Aliqulov, Sherali Xudoynazarov, Nurali Yo'idoshevlar mактabdagagi Mashrabjonning byusti oldida turishibdi. Ular birga ulg'ayishgan, shu maktabda birga o'qishgan. Byustga termilgancha, sukul saqlayotgan yigitlarning dilidan bir haqiqat o'tayotgani aniq: "U – haqiqiy do'st edi". Ha, Mashrabjon haqida ularning nurli xotiralarini juda ko'p. Do'stlarini o'zidan-da, ortiq ko'rgan bunday yigitni unutib bo'ladimi, axir. Do'stlari goh jilmayib, goho xomush tortib u bilan bog'liq xotiralarini yodga olishadi.

Boysunning Chorvoq qishlog'i. Kuz oxirlayotganiga qaramay, daraxtlardagi rango-rang barglar quyoshning ilqurida tovlanib, go'zalligini namoyon etadi. Ulug' yoshni qarshilayotgan Hurram aka va Himmat opa quyosh taftida choy ichib o'tirishibdi. Ular to'rt o'g'il va ikki qizni voyaga yetkazishdi. O'n beshdan ziyod nabira, o'ndan ortiq evara ularning ko'z nuri. Qizlari Sanamxonning o'g'li serjant Sirojiddin Ramazonov bugun tog'asi kabi Vatan himoyachilari safida. Voyaga yetayotgan bir qator nabiralari ham harbiy xizmatchi bo'lishga astoydil bel bog'lashgan.

Kuz ortidan qish va yana bahor keladi. Qovjiragan yer bag'ridan yana maysalar bosh ko'taradi, daraxtlarni gullar burkaydi. Tabiat yana hayot qo'shig'ini kuylaydi. Asrlarki, bu sehrli jarayon davom etadi. Mard siymolar ham xuddi shunday. Ular yo'qlikka yuz tutgandek ko'rinsa-da, aslida barhayotdir. Shoir aytganidek:

Elim deb yonganlar quyosh –
so'nmas nur,
Ufqqa bosh qo'yib, qaytadi sahar.
Ular mangulikka daxldor axir,
Ular boqiylikka etganlar safar.

Zulfiya YUNUSOVA,
«Vatanparvar»



Harbiy mutaxassislarni tayyorlash dunyoning barcha davlatlari Qurolli Kuchlarining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanib, murakkab, majmuaviy, intellektual va ayniqsa moddiy resurslarni ko'p talab qiladigan jarayon hisoblanadi.

rusumdagи trenajyorlarni kiritish, ulardan keng miqosda foydalanish shu kabi muammoli masalalarning eng maqbul yechimi hisoblanadi. Ya'ni jangovar tayyorgarlik tadbirlari, taktik o'quvlar va majmuaviy amaliy mashg'ulotlar avvalida mutaxassislarni turli xil trenajyorlarda tayyorlash muhim ahamiyatga ega. Trenajyorlar jangovar texnikalarni ekspluatatsiya qilishda xavfsizlik qoidalariiga amal qilishni ta'minlash bilan birga, bilim olish va kasb o'rganishda yuqori samarani beradi.

Funksional jihatdan zamonaviy trenajyorlarning imkoniyatlari juda keng. Masalan, oxirgi avlod trenajyorlari texnik qurilmalar tuzilishini o'rganish bilan bir vaqtida, ularni jangovar qo'llash, boshqarish, obyektlı qurollardan otish, qurol-aslaha va texnikalarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ko'nigmalarini o'rganishga imkon beradi.

Majmuaviy trenajyorlar jangovar mashinalar ekipajlarini jangovar faoliyatga, ya'ni jamoani jangovar birlik sifatida tayyorlashda katta potensialga ega.

Piyodalar jangovar mashinasi (BMP-2) ekipajining majmuaviy dinamik trenajyori piyodalar jangovar mashinasi ekipajini o'qitish va turli ob-havo, yil fasllari sharoitida, o'qdori, mashinaning motoresursi va yonilg'i-moylovchi materiallar sarfisiz, o'quv sinfi sharoitida otish va haydashni mashq qilish uchun mo'ljallangan.

Trenajyorni jangovar tayyorgarlik amaliyotida qo'llash, jangovar tayyorgarlikning asosiy tamoyillari hamda vazifalarini to'laqoni amalga oshirish imkonini beradi.

Jangovar tayyorgarlikning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

BMP-2 ekipajini texnik, razvedka qilish, otish va taktik tayyorgarligini amalga oshirish;
– o'qitish va mashq qilish jarayoni boshqarilishini ta'minlash;
– mashg'ulotlar va mashqlar jarayonida soddalashtirishlarga yo'l qo'ymaslik;

– ta'lilda
jang holatiga yaqin
sharoit yaratish;
– bo'linma
shaxsiy tarkibining jadal
tayyorgarligini ta'minlash;
– trenajyorlardagi
mashg'ulotlar va mashqlarning dala-
o'quv mashg'ulotlari, shu jumladan
jangovar otish bilan tashkiliy va
uslubiy aloqasini ta'minlash;

– mutaxassislarning tayyorgarlik
darajasini obyektiv nazorat qilishni
ta'minlash.

Harbiy mutaxassislarni tayyorlashda trenajyorlardan foydalanish:

– o'qitishga mo'ljallangan sarf-
xarajatlar jangovar texnikani qo'llab
o'qitgandagiga nisbatan 25–30
barobargacha;

– qimmatbaho qurol-aslaha,
texnika hamda yonilg'i-moylash
va boshqa materiallar, resurslar
sarfining 70 foizigacha;

– mutaxassislarning tayyorlash
muddatlari 1,6 baravar qisqarishini
ta'minlaydi.

Shuningdek, atrof-muhitga zarar yetkazilmaydi, avariylar,
o'rganuvchilarning jarohat olishi,
o'quv-moddiy baza infratuzilma
obyektlariga shikast yetkazilishiga
yo'l qo'yilmaydi.

Kichik mutaxassislarni trenajyorlardan foydalanib tayyorlashning asosiy afzalliklaridan yana biri, turli noxush holatlar (*texnikaning ishlamay qolishi, turli halokatlar, yong'in va shunga o'xshash hollar*)da ham texnikani ishlatish ko'nigmalarini egallash imkoniyati mavjud. Bunday holatlar trenajyorlarni ishlab chiqishda modellashtirilishi mumkin. Real texnika yordamida mutaxassislarni tayyorlashda buning imkoniyati yo'q.

Xulosa o'rnila aytish joizki, trenajyorlardan foydalanish harbiy mutaxassislarni, shu jumladan kichik mutaxassislarni tayyorlashda, ularning kasbiy mahoratini oshirishda istiqbolli yo'nalish hisoblanadi. Natijada qo'shinlar yetuk, puxta tayyorlangan, jangovar texnikalarni ishonchli boshqaradigan harbiy mutaxassislar bilan butlanadi.

**III darajali serjant
Nodirjon NURIYEV,
Merganlar tayyorlash markazi
katta yo'riqchisi**

TRENAJYORLAR QANCHALIK ZARUR?

Mutaxassislarning harbiy-texnik va harbiy maxsus tayyorgarligi, bu ta'limga oluvchilar tomonidan tizimli bilimlarni o'zlashtirish, qurol-aslaha hamda harbiy texnikalarni ishonchli qo'llash, ularni ekspluatatsiya qilish, ularga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash asosida jangovar vazifalarini bajarish malakasi hamda ko'nigmalarini shakkantirish jarayonidir. Uning mazmun-mohiyati ta'limga oluvchilarga qo'yilgan malaka talablari va ularning bilimi, malakasi, ko'nikmasi hamda o'quv, jangovar vazifalarini bajarishga ruhiy tayyorgarligi bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qo'shinlarida jangovar tayyorgarlik tizimida o'qitiladigan fanlar orasida texnik va maxsus tayyorgarlik fanlari muhim o'rinni tutadi. Tinchlik paytida harbiy xizmatchilarning jangovar tayyorgarlik davomida olgan bilim va ko'nigmalarini umumqo'shin bo'linmalarining jangovar tayyorgarlik darajalarini ko'rsatadi. Yuqori darajadagi jangovar shaylik esa

harbiy mutaxassislarning jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlarini shtatdagi jangovar texnika vositalarini qo'llagan holda uzuksiz, muntazam o'tkazishni talab qiladi. Bu jarayonda bir qator muammoli masalalar yuzaga chiqadi.

Jumladan:

- jangovar texnika vositalari motoresurslari sarfining chegaralanganligi, qo'shilma va bo'linmalardagi qimmatbaho qurol-aslaha hamda texnikalarni jangovar qo'llash uchun asrab-avaylash;
- qo'shinlarning moddiy ta'minoti yuqori darajada tashkillashtirilgan bo'lsa-da, sarflanadigan mahsulotlarni, shu jumladan yonilg'i-moylash mahsulotlarini tejash;
- yangi rusumdagи qurol-aslaha va texnikalarni jangovar qo'llash, ularni boshqarishga shaxsiy tarkibni o'rgatish jarayonida amaliy tajriba yetarli emasligi sabab avariya yoki tan jarohati olishdek noxush hodisalar sodir bo'lishi.

Harbiy xizmatchilarning tayyorgarlik jarayoniga turli

AMIR TEMURNING

313

SARKARDASI

Amir Temur barpo etgan qudratli lashkarning bo'linma va qismlariga 313 bek qo'mondonlik qilgan. Ularning dastlabki yuztasi o'nbegilik, ikkinchi yuztasi yuzbegilik, uchinchi yuztasi mingbegilik mansabiga tayinlangan. Tuman, ya'ni o'n ming jangchidan iborat qismlarga Sohibqironning o'g'illari, nabiralari, safdoshlari, qarindoshlari va ularning farzandlari boshchilik qilgan. Sohibqiron tuzgan qo'shinda xizmat qilgan sarkardalar tarkibini shartli ravishda to'rt guruhga taqsimlash mumkin.



Birinchi guruhdagilar Temurbekning markazlashgan davlat barpo etish iddaosi bilan siyosat sahnasiga qadam qo'ygan vaqtдан hayotining so'nggi onlariga qadar unga sodiq, hamfikr, hamnafas bo'lgan.

Ikkinci guruhdan Amir Temur tengqurlari, do'stlari, sodiq safdoshlarining farzandlari o'rinn olgan.

Uchinchi guruhni Sohibqironning farzandlari, nabiralari, yaqin qarindoshlari, tug'ishganlari tashkil etgan.

To'rtinchu guruhga Sohibqiron tuzgan ulkan sultanat tarkibiga kirgan qator el-yurtlarning hukmdorlari, sarkardalarini kiritish mumkin.

Gazetamizning ushu sonidan boshlab ularning har biri haqida ma'lumotlar berib borishni niyat qildik.

JAHONSHOH BAHODUR

Jakubek barlosning o'g'li, ulug'bek Jahonshoh Sohibqironning deyarli barcha harbiy yurishlarida qatnashgan, qo'lga kiritilgan g'alabalarga salmoqli ulush qo'shgan. 1381-yilda Hirotni zabt etgan Temurbek uni o'z qo'shini ilg'or qismi (*hirovul, mang'lay*)ga bosh qilib, Sabzavorga jo'natgan. Qunduz va Bag'lon hokimi lavozimida faoliyat olib borgan. 1383-yilda Jahonshoh, Elchibug'a, Shamsuddin Uch Qaro va Sayin Temur bahodur sardorligidagi 10 ming kishilik lashkar avvalroq Jataga yuborilgan Shayx Ali bahodur, Hoji Sayfuddinbek, Atalmish va Arg'unshoh axtachi boshchilikidagi lashkarga madad berishga jo'natilgan. 1383–1384-yili Jahonshoh o'z askarları boshchiligida Qandahor, Kobul va G'azni sarhadlari muhofazasiga tayinlangan.

Shu yilda Mubashshir va Iskandar Shayxiy bilan birga 38 kunlik muhosaradan so'ng Qandahorni fath qilgan, shahar kutvoli dorga osilgan, qal'a devori yer bilan tekislab tashlangan. 1384-yilning boshida Jahonshoh Qandahor va Kalot qal'alarini musaxxar etgan. Shu yilda Jakubek vafot etgandan so'ng Amir Temur hukmiga ko'ra, Kobuliston viloyati Jahonshohga xos mulk sifatida berilgan.

1386-yilda Dog'istondagi lakzlarni talab, itoatga keltirgan. 1388-yilda Xatlon tumanida Jahonshoh uch yuz suvoriy bilan g'animlik ko'chasiga kirgan Muhammad Mirak (*Mirka*) qo'mondonligidagi burulday urug'i askarlariga qarshi tong paytidan to yarim tungacha jang qilgan. Xoja Yusuf apardi va Pir Ali Toz sulduz madadga yetib kelgach, yog'iy qochishga majbur bo'lgan.

1389-yilda oliy yorliqqa muvofiq, Uch Qaro bahodur va o'zga beklar bilan 30 ming kishilik lashkarga rahbarlik qilib, Irtishda qo'nim topgan jataliklarni tor-mor etgan. Shu yilning 9-avgustida Jatadan Samarqand sari otlangan Temurbek Jahonshohni o'g'ruq (*oboz*)ga qo'ygan.

Ulug' bek rutbasiga erishgan Jahonshoh Qunduzcha jangida (1391-yili) To'xtamish askarlarining shiddatli hamlasini qaytarishga muvaffaq bo'lgan. 1393-yilning 9-yanvarida Mozandarondan Iroq va Fors tomon azimat qilgan Sohibqiron Jahonshohni bir nechta atoqli sarkardalar bilan birgalikda o'g'ruq zabtiga tayinlangan.

1394-yilning aprelida Iroqdagagi Homid (*Omid*) qal'asi tomon ilg'or (*avangard*) sifatida jo'natilgan. Ayni yilning avgustida Burhon o'g'lon, Hoji Sayfuddinbek hamda Usmon bahodur hamkorligida Gurjistonga qo'shin tortgan. To'xtamish va Amir Temur qo'shinlari o'ttasida Terek daryosi bo'yida kechgan uch kunlik to'qnashuvda Jahonshoh Hoji Sayfuddinbek bilan kamin (*pistirma*) da joylashgan va xon qo'shinining juvang'ariga kuchli zarba bergen. Dashti Qipchoq lashkari mag'lub

etilgach, Jahonshoh Mironshoh mirzo va boshqa beklar safida Saroy shahrini talagan, Rus (*O'russ*) va Ukraina (*O'rusrusq*) yerlarini musaxxar etgan, Cherkasni bo'ysundirish amaliyotida faoliik ko'rsatgan.

1396-yilda Bokudan Bag'dodgacha va Hamadondan Rumgacha bo'lgan mulklar hukumati Mironshohga berilib, u Alanchuq qal'asini musaxxar qilishga belgilanganda Rustam mirzo va Jahonshoh mirzoga yordamga kelgan edi.

Hindiston safarida qo'shining Sulton Mahmudxon qo'mondonligidagi so'l qo'l sarkardalari safidan o'r'in egallagan. Panipat g'alabasidan so'ng Jun daryosi yaqinidagi ellarni chopib, sonsiz mol-o'ja olib kelgan.

Yetti yillik yurish paytida Gurjiston tomon ot surgan Sohibqiron Jahonshohni Malik Gurgenni qidirib topishga tayinlangan. 1400-yilning sentabr-oktabrida Temurbek hukmiga muvofiq, Boyazid Yildirimga tegishli Malatya va Koxtagacha bo'lgan hududlarni g'orat qilgan, ulkan miqdorda o'ja olib, lashkargohga qaytib kelgan. Shu yilning 30-oktabrida Halab uchun kechgan muhorabada Jahonshoh qo'shining Sulton Mahmudxon sardorligidagi so'l qo'lida turgan.

1401-yilning 5-yanvarida Misr podshohi askarları bilan Damashq sahrosida sodir bo'lgan savash chog'i nomdor lashkarboshi Sulton Mahmudxon, Xalil Sulton mirzo, G'iyosuddin tarxon va boshqa lashkarboshilar qatori qo'shining o'ng qanotidan o'r'in olgan.

1402-yilning ko'klamida Sharqiy Anado'ludagi Kamox qal'asini olishda matonat ko'rsatgan. Anqara muhorabasida qo'shining Mironshoh mirzo qo'l ostidagi so'l qanoti qunbulida Abubakr mirzo, Qaro Usmon turkman, To'kal barlos va Pir Ali sulduz hamrohligida harakat qilgan. Erishilgan zafardon keyin Muhammad Sulton mirzo hukmiga muvofiq, Sevinchakbek bilan G'arbiy Anado'ludagi Berg'ama shahrini g'orat qilgan, Izmir shahrining fath etilishida qatnashgan.


1404-yilning mart oyi boshida Sohibqiron Hulaguxonga taalluqli ulusni Umar mirzoga bergen va Jahonshohni uning maslahatchisi etib tayinlangan. Mart oyida yuz o'ralarida Jahonshoh Umar mirzo va boshqa nomdor sarkardalar qatori Ozarbayjonga yo'l olgan.

Jahonshoh 1405-yilning boshlari Umar mirzoga qarshi isyon ko'targan. Mart oyida yuz bergen jangda yengilgan va Shayx Muhammadning o'g'li Bobo hoji tomonidan qatl etilgan. Atoqli bekka tegishli mol-mulkning bir qismi devon hisobiga musodara qilingan, qolgani talon-toroja uchragan.

Hamidulla DADABOYEV,
Mudofaa vazirligi huzuridagi
Jamoatchilik kengashi a'zosi,
professor



"BOBURNOMA"da QO'LLANILGAN HARBIY ATAMALAR



"Boburnoma"ning kishini hayratga soluvchi xususiyatlardan biri Bobur mirzo o'z davrining komil insoni, turli sohalarda mukammal ilmga ega bo'lgan zabardast olim, yetuk mutafakkir ekanligini ko'rsata olgan tarixiy-memuar asarligi bilan ajralib turadi.

"Boburnoma"ni o'rgangan deyarli barcha olimlar unda keltirilgan faktik-analitik ma'lumotlarni tarix, geografiya, biologiya, tibbiyat, etnografiya, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, harbiy san'at va boshqa turli nazariy fanlar hamda amaliy sohalar uchun katta hissa qo'shgan jahon durdonalaridan biri, bebaaho va betakror qiymatga ega manba ekanligini e'tirof etishgan. Bobur mirzo harbiy maqsadlar va harakatlarni bayon qilishda harbiy qo'mondon sifatida fikr yuritgan va o'z fikrlarini qog'ozga tushirib borgan.

"Boburnoma"da harbiy sohaga oid atama (*istiloh*)lar va iboralar qo'llanilmagan sahifa deyarli topilmasa kerak. Ushbu asar tarjimasida davr ruhini aks ettirishda tarixiy, milliy madaniyatga xos so'zlar muhim o'rinn tutadi. A.V. Fedorov to'g'ri ta'kidlaganidek, qadimiy, badiiy asar tarjimasidan maqsad zamondosh o'quvchini adabiy yodgorlik bilan tanishirish. Bu maqsadni amalga oshirishda esa zamonaviy tilni qo'llash asosida zarur, tarixiy ruhni aks ettirish uchun grammatik hamda lug'aviy birliklardan o'rinni, tanlab foydalanishda, albatta lingvomadaniy xususiyatlari ko'zda tutiladi.

Asliyatdagagi arxaiklashgan til vositalariga tarjimon o'z tilidan muqobil, mos tarixiy-axraik variant qidirib topishga urinmay, jiddiy badiiy uslubiy sabablarni hisobga olishi zarur hamda tarixiy haqiqatni buzmay asarni o'z tiliga o'girishi lozim bo'ladi. "Boburnoma"dan quyidagi parchalarda keltirilgan: **burong'or, juvong'or, irovul-hirovul** kabi harbiy atamalar keng qo'llanilgan. Ular quyidagi ma'nolarni anglatadi. Masalan: **burong'or** – qo'shining o'ng qanoti, **juvong'or** – qo'shining chap qanoti, irovul – lashkarning oldinda boruvchi qismi, ya'ni avangard. Quyidagi jumlaning mazmuniga e'tibor beramiz.

"G'anminning burong'ori bizning juvong'orimizni bosib, orqag'a evruldi, irovul

ham o'ng qo'l sari qolib, olimiz yalang bo'ldi".

"Boburnoma" asarining inglizcha tarjimasida burong'or – right, juvong'or – left, irovul – van so'zlari orqali tarjima qilingan. Ingliz tilida qo'shining o'ng yoki chap qanoti tushunchalarining faqat right va left so'zlari bilan ifodalanishi oddiy holat hisoblanadi va bu so'zlar hozirgi ingliz tilida ham harbiy atamalar sifatida istifoda etiladi. (*"His right beat our left, then wheeled (again) to our rear. (As has been said), the front of our centre was bare through our van's being left to the right"*).

Inglizcha **van** leksemasi xususida alohida to'xtaladigan bo'lsak, ushbu so'z hozirgi ingliz tilida **"ilg'or"** hamda harbiy atama sifatida **"ilg'or otryad"** ma'nosida qo'llaniladi. U XVII asrning boshlarida **vanguard** so'zining qisqartirilgan shakli sifatida paydo bo'lgan. **Vanguard** leksemasi ingliz tiliga XIV–XV asrlarda fransuz tilidan o'zlashgan. Fransuzcha **avant** – oldin, **garde** – qorovul. "Boburnoma"da qo'llangan **irovul** termini mo'g'il tilidagi **hirovul** so'zining fonetik o'zgarishga uchragan o'zlashmaning bir turi hisoblanadi.

"Boburnoma" asarida qo'shining markaziy qismini ifoda etish uchun **g'o'l** termini qo'llanilgan. Masalan: *"Ertasiga biz ham burong'or, juvong'or, g'o'l, hirovulni tartib qilib, kejim kiyib, yarog'lanib, yasol yasab, tura ko'targan yayoglarni olimizg'a solib, g'anim ustiga yuruduk".* ("Next day we moved out against him, formed up with right and left, centre and van, our horses in their mail, our men in theirs, and with foot-soldiers, bearing mantelets, flung to the front").

Yuqorida keltirilgan, jumlada **yasol** atamasi "jangovar saf"ni anglatadi. Ushbu atama "otlarga yopiladigan zirhli yopinchiq" ma'nosidagi **kejim**, "odam bo'yи barobar qalqon" ma'nosidagi **tura** hamda "piyoda askar" ma'nosidagi **yayoq** so'zlari ham harbiy atama (*istiloh*)lar sirasiga kiradi. Inglizcha tarjimada **yasol yasab** birikmasini tarjima qilishda **to form fe'lidan** foydalaniilgan.

"Boburnoma"da qo'llanilgan kejim ingliz tilida "metal halqlar yoki yaproqlardan yasalgan kiyim yoki yopinchiq" ma'nosidagi mail so'zi bilan berilgan.

Ushbu inglizcha so'z aynan jangovar otlarga yopiladigan **zirhli yopinchiqning** muqobiligini to'liq ta'minlamagani uchun tarjimon **horses (otlar)** so'zini qo'llab matnga aniqlik kiritgan.

"Odam bo'yи barobar qalqon" ma'nosidagi **tura** so'zining muqobiligini ta'minlash maqsadida tarjimon **mantelet** leksemasini tanlagan.

Manbalarda ushbu so'zning muqobilari sifatida ingliz tilida bir nechta ma'nolari keltiriladi. Birinchisi, "yelkaga ilib yuriladigan yengsiz nimcha", ikkinchisi, "yog'ochdan yasalgan katta o'lchamdag'i qalqon, to'siq" va hozirgi kunda ancha faol qo'llanadigan ikkita ma'nosi mavjud. Harbiy sohaga aloqador bo'lgan "o't ochish nuqtasini yopib turuvchi to'siq" hamda "kuzatuvchi yashiringan joy" ma'nolarini anglatadi.

"Boburnoma"da "piyoda askar" ma'nosida qo'llanay **yayoq** so'zini tarjima qilishda mutarjim **"foot-soldier"** so'zidan foydalangan. Aslida, inglizcha foot-soldier, infantryman bilan mutlaq sinonim hisoblanadi. Ammo hozirgi ingliz tilida ushbu so'z harbiy atamalik xususiyatini yo'qtgan. U asosan korxona, tashkilot va boshqa idoralarning eng quyi lavozimlarida ishlaydigan oddiy xodimlarga nisbatan qo'llaniladi.

Xotima o'rniда shuni aytish lozimki, "Boburnoma" asarining inglizcha tarjimasining amalga oshirilishi, avvalo Bobur siymosining jahon sharqshunoslari, G'arbiy Yevropadagi keng kitobxonlar tomonidan yana bir bor e'tirof etilganligidan dalolatdir. Tarjima asliyatdagagi milliy va tarixiy ahamiyat kasb etuvchi so'zlar, termin (*realiyalar*), xususan Bobur va Boburiylar sulolasi davriga oid lavhalarni qayta yaratishda avvalgi nashrlarga nisbatan anchagini ijobilishlar amalga oshirilgan deyish mumkin. Bizningcha, mazkur inglizcha tarjimani avvalgi tarjimalar bilan asliyatga solishtirgan holda tahlil qilish alohida monografik izlanishni taqozo etadi.



Bayroq (hikoya)

Nabi Jaloliddin

Bola uyning ostonasiga sumkasini tashlab, moyabzalini yechayotganida hovli tomondan dadasingin ovozi eshitildi:

– Botir bolam, senmisan?

Dadasining kayfiyati yaxshi shekilli, chunki yaxshi bo'lsa, uni hozirgiday "Botir bolam" yoxud "Botir bola", deya chaqirish odasi bor edi.

– Menman, dada, – deb qo'ydi u ovozi jaranglab.

– Bu yoqqa keli! – dedi dadasi erkalochni ohangda.

Botir uyg'a kirib, apil-tapil kiyimlarini almashtirdi-da, qaytib chiqdi. Idishdag'i suvgu qo'lini chayib, hovlining etagiga qarab yurdi.

Dadasi o'talab qolgan bahorning tanani kuydiradigan oftobidan qochib, hovlining katta bir qismini egallagan ulkan o'rakning soyasida To'lqin cho'loq degan oshnasi bilan gaplashib o'tirardi. Botir To'lqin cho'loqni yaxshi biladi – dadasingin sinfdoshi. U asli traktorchi bo'lgan. Bir oyog'ini traktor bosib qolgach, oyog'dan ayribil, nafaqaga chiqqan, ya'nancha muncha odamning vaqtini o'dira oladigan g'irt bekorchi.

– Assalomu alaykum, – deya salom bergen Botir avval mehmon, so'ng esa dadasi bilan so'rashdi.

– Keldingmi, Botir bola? Qani, o'tirchi! Qorin ham ochgandir?.. – Dadasi uni yoniga o'tqazdi.

– Ayang enasinikiga ketganida, bir maza qivolaylik, o'g'lim. Qani, ol-chi!

O'rtadagi ixcham kirchimol dasturxon ustida bahorda ancha tanqis bo'ladigan yeguliklar bor edi. Pomidor, bordinglar parrak-parrak qilib to'g'ralgan, ularning tiniq rangi ko'zni qamashtirardi. Tovoqda esa qovurilgan go'sht. Bahorda bu narsalar falon pul turishini bola bo'lsa ham Botir yaxshi bilardi. Uning og'zi suvlanib, yumshoqqina obinonga qo'l uzatdi.

– Sen tortinmay olovur, – deb qo'ydi To'lqin cho'loq tili qaltirab. – Go'shtdan olchi! – u bir bo'lak go'shtni Botirning oldiga surdi. – Qani, urdik! – dedi dadasi piyolani olarkan.

Iye, arog ichishayotgan ekan-da. Ha, biladi – bu dadasingin "ishi". Dadasi shunaqa – bir oyda bir bor, o'zi

aytmoxchi, "Bo'shalib, bitini to'kib oladi". O'shandayam ko'cha-po'chada ichib yurmaydi, hamma narsani sotib oladi-da, To'lqin cho'loqni yoki boshqa biron-bir yaqin oshnasinimi, uyg'a boshlab keladiyu, bitta-yarimta aroq ichishib, mana shunaqa gaplashib o'tirishadi. Bunday paytda dadasingin gapini tinglaydigan odam topilsa bo'ldi, yozilgandan-yoziladi. To'lqin cho'loqqa o'xshagan qo'li yupqa bekorchi uchun esa bu ayni muddao edi, ayniqsa "ilik uzildi" kunlarda haytovur, og'zini chuchitib olardi.

Ayasining aytishicha, dadasi asli o'qimishli odam, "raislearning o'qishida" (*Qishloq xo'jaligi institutida demoqchi*) o'qigan ekan. Avval kolxoza agronom bo'lib ishlagan, keyinchalik kolxozlardan qo'r ketib, kun ko'rish og'irlashgach, o'zini bozorga urchi. Ul-bul narsalarni olib-sotib yuradi. Mol bozoriga chiqadi. Uyda esa ikki-uchta bo'rdoqi novvos boqadi. Shuning orqasidan tirikchiliklari ancha yaxshilanib qolgan.

– Yoshimizam qirqdan o'tdi, oshna, – deya gapga tushdi dadasi bir bo'lak go'sht bilan bir parrak pomidorni og'ziga solib. – Endi mana shularni deb, – u kafti bilan Botirning boshini siladi, – yashaymizakan-da. Ammo lekin...

Botir og'zini to'ldirib ovqat chaynarkan, beixtiyor dadasinga qaradi.

– Sen qorningni to'yg'az, Botir bola, – deya bir nafas chalg'igan dadasi yana gapida davom etdi. – Ammo-lekin bolalarimizning tarbiysi izdan chiqib ketdi. Maktablar aynidi, nimani o'qityapti, Xudo biladi. Ayniqsa, o'g'il bolalar bachkanalashib ketyapti. Bu yomon, oshna!.. Qornimiz oldingiga qaraganda xiyla to'q bo'p qoldi. Endi manavilar haqidayam o'ylashimiz kerak – dadasi barmog'i bilan boshi va ko'ksini ko'rsatdi. Keyin piyolalarga tag'in arog quydi. – Mening uchta o'g'lim bor. Men ularning, eng avvalo, haqiqiy erkak haqiqiy vatanparvar bo'lishlarini istayman! – Shu gapni aytdi-yu, To'lqin cho'loqning ko'zlariga birpas tikilib qoldi.

– Tushunyapsanmi, To'lqin, haqiqiy vatanparvar bo'lishini istayman.

– So'ng hafsalasi pir bo'lganday qo'lini siltadi-da, – ke, qo'y, – deya aroqni sippordi.

Dadasining gapidan keyin Botir ham To'lqin cho'loqning ko'zlariga qaradi: ular go'yo bo'm-bo'sh edi, hatto qorachiqlari ham yo'qqa o'xshardi. To'lqin cho'loq dadasingin gapini tushunmayotganligini u ham payqadi. Nega endi tushunmayotgan ekan-a? Axir Botir kichkina bo'lsa ham, tushunyapti-ku. O'gil bola vatanparvar, ya'ni Vatanini yaxshi ko'radigan bo'lishi kerak ekan. Nahotki, shuni tushunishi qiyin bo'lsa?!

To'lqin cho'loq tilining ostiga nos tashladi, gap esa novvos boqish "san'at"iga ulandi. Ana endi dadasi ochilgandan-ochildi...

Botir qornini boplab to'yg'azib, o'ynagani ko'chaga yugurdi.

Tushdan keyin dadasi To'lqin cho'loqni kuzatib chiqqanida, Botir ro'paradan chopqillab kelardi.

– Dada-dada, hozir Mel Gibsonni kinosi bo'larkan. Ko'rasizmi? – dedi u bidillab, hali darvozaga yetmasdan.

Dadasining suzilgan ko'zlar battar qisilib, jilmaydi:

– Siz minan bo'lsa, ko'ramiz-da, Botir bola. – Dadasi uni, ya'ni kenjatoyini bo'lakcha suyardi, endigina beshinchisinfda o'qiyotgan bo'lsa-da, goho-goho kattalarday gapirib qolishidan huzurlanardi. – Qani, ketdik bo'limasa. – Dadasi ortiga burilarkan, xiyol dovdirab ketdi.

U uyg'a kirayotib velosipedni yetaklab, ko'chaga chiqib ketayotgan o'tancha o'g'lini to'xtatdi:

– Qayoqqa ketyapsan?

– O'tga, dada, – dedi o'g'il qo'lidagi etak va o'roqqa ishora qilib.

– Qorningni to'qlavoldingmi?

– Hmm...

– Unaqa bo'lsa, o'tni qo'y. Yur, Mel Gibsonni kinosini ko'ramiz.

Bu payt hovli tomonda katta o'g'il ko'rindi.

– Dasturxonni yig'ishtirib

qo'yib, senam uyg'a kir!

– dadasi yoqimli buyruq ohangida.

Bolalar dadalari bilan birga kino ko'rishni juda-juda yoqtirishardi. Shuning uchun og'zi qulog'ida, televizor ro'parasida jam bo'ldilar. Hademay kino boshlandi, nomi "Vatanparvar" ekan.

– Zo'r kino shekilli, a, dada? – dedi ko'zlar chaqnagan Botir bir qo'zg'alib olib.

– Mel Gibson yomon kinoda o'ynamaydi, – deb qo'ydi yonboshlab joylashib olgan dadasi beparvolik bilan.

– "Sheryurak"ga o'xshaydikan-a? – yana bidilladi Botir.

Katta akasi "Jim bo'll!" deganday uni bir turtdi.

– Hmm... – deb qo'ydi dadasi uning so'rog'ini javobsiz qoldirmay.

Kino avjga chiqa boshladi. Ana bosqinchilar Mel Gibsonning (*ya'ni u ijo etayotgan qahramonning*) katta o'g'lini bandi etishib, haydab keta boshladi. Uning kichikroq yana bir o'g'li akasini ozod qilish uchun g'animga tashlandi. Ammo uni bosqinchilarining yovuz boshlig'i otib qo'ydi. Mel Gibson "Yo'o'q!.." deya hayqirib, o'g'li sari otildi...

Botirning dadasi esa "Ah!" deya sultanib, o'rnidan turib, o'tirib oldi. Uning bo'yin tomirlari bo'rtib ketdi.

– O'g'lini o'ldirgani uchun endi u vatanparvar bo'p qoladimi, dada? – so'radi Botir bolalarcha soddalik bilan filmning nomini eslab.

Dadasining ko'zlar yoshlangandi.

– Hozir uning uchun bolalari Vatan, – dedi dadasi ekrandan ko'zini uzmay. – Anovi o'lgan bola uchun esa asir qilingan akasi Vatan!..

Uning nazdida, hozir dadasi televizorda chiqadigan shoirlarga o'xshab ketdi. Gaplarini tushunmadi shekilli, unga tikilib goldi. Dadasi buni sezib, o'girildi.

– Agar erkaklar o'z Vatanlarini himoya qilomasalar, ota-onalar bolalarini, aka-ukalar birlarini asrolmay qoladilar. Tushundingmi? – dadasi yana kinoga andarmon bo'ldi.

Botir esa o'ychan "Hmm" derkan, "Otamiz bunaqa gaplarni aytmovdi", deb qo'ydi o'ziga-o'zi gapi rayotganday.

Filmdagi voqealar rivoji kuchaya borgani sari bir nimalar esiga tushayotgan dadasingin jig'ibiyroni chiqqa boshladi:

– Mana, kino! – derdi tizzasiga shapatilab, – mana, haqiqiy kino! Biznikilar esa faqat bachkana narsalarni ishlashadi. Xuddi o'zbekni kulgidan boshqa dardi yo'qday. Yo bo'limasa, ashulachilardan kino qilishadimi-yeys... – U katta o'g'liga qaradi: – Nomi nimaydi?..

O'g'il kuldi:

– "Sevinch"...

– Ha, ashi, "Sevinch", "Sarvinoz" "Shohsanam", "Gulsanam"... – Dadasi ataylab yangi nomlarni to'qib tashladi. – Ularga qo'yib bersa ... Jon bolalarim, bizga hozir unaqa kinolarni keragi yo'q, mana bunaqa kinolar kerak!.. – U qo'li bilan televizorni ko'rsatdi.

Botir dadasining fe'lini yaxshi biladi: u kishi doim ham bunaqa gaplarni gapiravermasdi. Faqat gohida "yozilib" qolganida... Aslida dadasi kamgap, qo'polroq odam. Lekin fe'li o'ziga juda yarashadi. Bunaqa paytda dadasining gapini bo'lmaslik lozimligini bola yaxshi biladi.

– To'g'ri, bulardi hammasi uchun pul kerak, mablag' kerak. Ammo-lekin pul topilsayam eplasholmayaptiku!.. Amir Temur haqidagi kinomizni qara! Senlarga avval ham aytganman. "Loy jangi" Temur bobo hayotida katta o'zgarish yasagan jang. O'sha katta jang kinoda qanday tasvirlangan?..

Bolalar filmdagi o'sha lavhani va dadasining o'shanda aytgan gaplarini eslab, kulib qo'yidilar.

– To'rtta yoki oltita odam chuqurga tushvolib, loyga dumalayverishadi. Shunchaligam masxarabozlik bo'ladi mi axir!.. Jangni mana bunday qilib ko'rsatishsa bo'meydimi!..

Yana hammalarini jim qoldilar, chunki filmdagi voqealar avj nuqtasiga chiqqandi. Ana, Mel Gibsonning to'ng'ich o'g'li uning o'z qo'lida jon berdi. Haligi yovuz boshliq yigitchaning qorniga qilich suqib oldi. Botir unga juda-juda achinib ketdi.

– Og'risa kerak-a? – deb yubordi beixtiyor.

– Og'riydi-da! – dedi kichik akasi bilag'onlik bilan.

– Vatan uchun bo'lsa, og'rimasa kerak – deb qo'ydi dadasi o'ziga-o'zi gapirayotganday.

Mel Gibson butkul tushkunlikka tushdi, jang qilishdan voz kechib, ortiga qaytib ketmoqchi bo'ldi. Shu payt o'g'lining sumkasidan Amerikaning tikilgan (*o'g'i tikib, butlab qo'yan*) bayrog'ini topib oldi. Shunda... U bayroqni azot ko'tarib, ot ustida pastlikdan chiqib kelayotganda dadasi tag'in "Ahh!" deya o'rnidan sapchidi. Uning bo'yin tomirlari yo'g'on yo'g'on bo'lib ketdi. Dadasi juda barvasta va kuchli odam edi. Hozir ko'zlarida yosh bo'g'riqib, jo'shib turishi Botirning yodiga "Sheryarak" filmidagi Mel Gibsonni soldi. Film oxirida Mel Gibsonni qiyashib, osib qo'yishadi. Ana o'shanda uning bo'yni xuddi dadasiniki kabi yo'g'onlashib, tomirlari bo'tib ketadi...

– Mana, bayroqni qanday ulug'lash kerak! – deya hayqirdi dadasi.

Botirning ko'zlarida katta-katta ochilib, dadasiga tikildi.

– Bayroq shunaqa aziz narsami, dada? – bu so'zlar uning og'zidan beixtiyor chiqib ketdi.

Dadasi keskin u tomonga o'g'irilib, ko'zlariga qattiq tikildi.

– Bayroq – bu Vatanni yuzi-da, bolam! Gap bayroq deb atalgan bir parcha lattada emas... – dedi g'oyat sokin ovozda. – Mana, mening yuzim, ana, sening yuzing. Bayrog'imiz esa O'zbekistonimizning yuzi!..

Botirning ko'zlarida chaqnadi. Biroq tezda tusi o'zgarib, xayoli chalg'idi-da, yaqindagina maktabda ko'rgan bir voqeani esladi: o'shanda katta tanaffus mahali edi. Botir o'rtoqlari bilan o'ynab yugurkan, maktab xo'jalik mudiri omborining lang ochiq eshigi oldida beixtiyor to'xtab qoldi. Ichkarida qorni tandirday keladigan xo'jalik mudiri uyilib yotgan turli narsalar ostidagi katta stolni olishga urinayotgan yuqori sinf o'quvchilariga "Uni u yoqqa, buni bu yoqqa", deya buyruq berib turardi. Bir payt bolalardan birining qo'lida dastasiga beo'xshov o'ramoqlangan, rangi unniqsan bayroq paydo bo'ldi-yu, "Buni nima qilay?" deganday xo'jalik mudiriga qaradi. Mudirning, hatto biron tuki ham qimir etmadni.

– Naryoqqa, spisat (*Botir bu so'zni tushunmagan, hatto eslاب qololmagan bo'lsa-da, mudirning so'z ohangidan "keraksiz narsa" degan ma'noni angladi*) qilingan bayroq, – dedi devor ostini ko'rsatib.

Haligi bola avvaliga hayron bo'ldi, so'ng "Menga nima" deganday, uchida yaltiroq nayzasi bo'lgan bayroqni devor tagiga uloqtirdi. Botir ayni damda ana o'sha voqeani eslarkan, agar bayroq aziz narsa bo'lsa, unda xo'jalik mudiri nega uni uloqtirishga buyurdi, deya o'ylardi. Axir u ham dadasiga o'xshab, kap-katta odam bo'lsa!.. Demak, bayroqni qutqarishim kerak, deya xayol qildi u. Negadir miyasiga aynan shu "Qutqarishim kerak", degan so'z keldi.

Bahorda ish degani ko'paygandan-ko'payadi. Ayniqsa, maktablarda, bahoriy bayamlar bahona xonalarni, tevarakni supurib-sidirish, yuvib-tozalash avj oladi. Goho bunaqa yumushlardan bolalar bezib ham ketishadi.

Bir kuni Botirlarning muallimasi uchinchisi soatdagি darsni o'tib bo'lgach:

- Bugun bir hashar qilaylik-a?! Polni, parta-yu devorlarni ham sodalab yuvamiz, maylimi, bolajonlar? – dedi erkalovchi ohangda.
- Xotira va qadrlash kuniga xonamizni zo'r qilib qo'yaylik!..

Botir bilan yana bir bolani xo'jalik mudiriga jo'natdi. Opasi undan eski latta va soda so'rab qo'ygan ekan, o'sha narsalarini olib kelishlarini tayinladi.

Xo'jalik mudiri o'z ombori oldidagi so'rida qornini tizzasiga qo'yib, yastanib o'tirardi.

– Opamiz jo'natdi, – deyishdi bolalar.

– Hozir senlarga latta oberaman, – degan mudir ombor eshigini ochib, nima qilishini bilmay, serryib turib qoldi. So'ng bir burchakdan eski latta topdi-da, Botirning sheri giga uzatdi. Bola lattani olgach, sheri giga ham unutib, sinfxonasi tomon chopib ketdi.

– Senga nima bersam ekan? – dedi mudir u yoq-bu yoqqa alanglarkan. Shu payt devor ostida chang bosib yotgan bayroqqa ko'zi tushdi. Uni qo'liga olib, dastasidan chiqardi, bir chetini oyog'i bilan bosib, ikkinchi chetini qattiq siltadi. Bayroq go'yo ingraganday ovoz chiqarib, yarmigacha yirtildi. Uni yerdan olib, g'ijimlab o'radi-da, Botirga uzatdi.

– Ma, birovga ko'rsatmay ishlat.

Botir karaxt edi. Mudirning bu harakatlari asnosida Mel Gibsonning kinolari ko'z oldiga keldi, dadasining Vatan, bayroq haqidagi gaplari yodiga tushib, bayroqni qutqarmoqchi bo'lganini esladi.

Shuning uchun omborning eshigi oldida birpas ikkilanib turib qoldi. Bir qarorga keldi shekilli, g'ijimlangan bayroqni qo'lting'iga qisib, uyi tomon chopib ketdi. Muyulishdagi qishloq masjadi oldida ikki-uchta chollar o'tirishardi.

Ularning qarshisiga yetganda bola go'yo chollar qo'lting'idagi narsa nima ekanligini bilib qolishayotgandek picha g'alati bo'lib oldi. Biroq bir necha lahma o'tar-o'tmas xavotiri o'rinsizligini fahmlab, oqsoqollarga quyuq salom berdi-da, qadamini tezlatdi.

Botir qo'lidagi kattagina latta bilan sinfxonaga hansirab kirib kelganida, opasi omborga u bilan birga borgan boladan uning qayerda qolganligini endigina so'rab turgan ekan...

Bolakay o'sha kuni kechga tomon ayasidan igna bilan ip oldi.

– Nima, endi chevarchilik qilmoqchimisan, Botirjon? – dedi ayasi kulib.

U esa "Kerak bo'p qoldida", deya darsxonasi kirib ketdi. Bayroqni o'sha yerga berkitgan edi. Rangi o'chgan yirtiq bayroq hozir ko'ziga juda g'arib ko'rindi. Uni tekis qilib yozib, biroq o'ychan tikilib turdi va yirtiq'ining bir chetiga asta igna urdi.

Uning "tikuvchiligi" bir necha kunlik bo'sh vaqtini oldi. Sababi choki o'ziga yoqmay, qayta-qayta tikishga to'g'ri keldi. Qorotolning shohidan bayroq uchun dasta yo'ndi – bunga ham ancha vaqt ketdi. So'ng hafsalan bilan dazmolladi...

May oyining boshlarida maktabda Xotira va qadrlash kuniga bag'ishlangan kecha bo'lishi kerak edi. Botir ana o'sha yig'inga borishni

mo'ljallardi. Tekis tikilgan, dazmollangan bayroqni yangi dastasiga yaxshilab o'rab, darvoza tomon borayotganda ortidan ayasining ovozi eshitildi:

– Bayroq qaydan keldi, bolam?

– Maktabdan berishuvdi. Bugungi bayramda ko'tarib turaman, – dedi bola onasini ortiqcha bezovta qilmaslik uchun yolg'on gapirib.

– Ha, tuzuk ammo-lekin yirtib-netib qo'yimagin, – deya nasihat qilgan bo'ldi ayasi.

Botir "Xo'p-xo'p" dedi-da, ko'chaga chiqdi. Oz-moz yurgach, yengil shabada esayotganini payqab, zavqi keldi. O'ramoqlangan bayroqni yoyib, dastasidan tutdi va boshi uzra ko'tardi. Bayroq yengil, biroq yoqimli hilpirardi, bola qadamini tezlatgani sari tobora baralla hilpirayverdi.

Ko'chadagi odamlarning bari unga qarardi. Ayniqsa, guzarga yetganda odamlarning ming bir ma'noli nigohiga ularning turfa so'zlarini ham qo'shildi:

– Iye, bayroq ko'rinyaptimi?

– deb qo'ydi chinor ostida o'tirgan chol.

– Bayrog'imiz chiroliy ekan-a? – deb qo'ydi do'kondan chiqayotgan yigit kulib, xuddi bayroqni birinchi bor ko'rib turganday.

– Bayroq minan hazillashib bo'ladi! – deya to'ng'illadi tamaki tutatayotgan ziylanamo kishi. – Buning siyosiy tomonlariyam bor.

– He, yasha, azamat!

– deb baqirdi birov. – Bitta barabanchiyam ovlomabsan-da.

– Kimni o'g'li o'zi bu? – deya so'radi kimdir.

– Otasining o'g'li-da, – dedi o'ziga nos tashlayotgan To'lqin cho'loq. – Bayroqni ehtirot qil, Botirvoy!..

Bola bu gaplarning birontasiga parvo qilmay, bayroqni mag'rur ko'targancha guzardan o'tib borardi. U o'z nazidda, ot ustida Vataning bayrog'ini ko'tarib borayotgan Mel Gibson dan kam emasdi. Bola chinakam jang ichra borardi. Ammo o'zi buni anglamasdi, anglashga ojiz edi. Bu xalqning, millatning ong-tafakkurida evriliş, ehtimolki, inqilob yasamoq uchun ahd qilmoq, kurashmoq tarixning ulug' janglariga kirmoqlikdan kam emasligini u tushunmasdi va bolakay bunaqa chiroliy gaplarni bilmasdi ham. Lekin ma'sum qalbining amri, undovi va ehtirosi tufayli ona Vatanining bayrog'ini bolalarcha zavq ila mardona ko'tarib borardi.

Uning buyuk kurashga, jangga o'zi bilmay bel bog'laganligini faqatgina tiniq osmon, yam-yashil daraxtlar, yo'llar, Vatan, qo'llidagi bayroq va o'sha qo'llari fahmlab, tushunib turardilar.

Botirning kichik akasi o'z sinfdoshlarining orasida safda turarkan, dadasi bilan ukasiga boqib, qaddini rostladi,

ylekalarini ko'tardi. To'qqizinch sinfdan o'qiydigan katta akasi esa sinfdoshining ortiga berkinib, yerga qaragancha tirjaydi.

O'z so'risining ustida tik turib davrani tomosha qilayotgan xo'jalik mudiri g'o'Idirab qo'ydi:

– Obbo, qiztaloq, yangi bayroqni qaydan toptiykan?..

Botir hozir chinakam Mel Gibson edi va barchadan balandda turardi. Qo'lidagi bayroq esa yuksak-yuksaklarda mardona qanot ko'tardi.

Botir maktab darvozasiga yetganda velosiped mingan dadasi masjid tuyulishidan o'tib, guzarga keldi. Oshnasi To'lqin cho'loq bilan ko'rishib qo'yish uchun to'xtadi.

– O'g'ling bayroq ko'tarib o'tib ketdi-ya? – deya tirjaydi cho'loq hali so'rashib ulgurmay. – Uniyam ja vatanparvar qivoribsanmi?..

Bu gapdan otaning jahli chiqdi. To'lqin cho'loqning basharasiga birpas g'alati tikilib turdi:

– Hushyor bo'l, seniyam!.. – deya zarda bilan shartta burilib, velosipedga mindi.

Botir qator bo'lib davra qurban maktab jamoasi yoniga yetganda bir to'xtab oldi. Bayroq qo'lidan tushib ketay dedi. O'qituvchi-yu o'quvchilar – hamma-hamma unga o'girildi. Hatto ucrashuv uchun kelib, davra to'rida o'tirgan urush qatnashchisi bo'l mish ikki chol ham unga qaradilar. Chor atrof sukunatga cho'mdi. Hamma hayratda – axir tamoyil bunday emasdi-ku!

Shu payt bolaning ortida dadasi paydo bo'ldi. U velosipedini yerga tashladi-da, shaxt ila o'g'liga yaqinlashdi. Barchaning nigohida "Nima qilarkan?" degan xavotirli savol zohir bo'ldi. Hoynahoy, beta'sir o'g'liga shapaloq tortib yuborsa kerak, yo'q, unday qilmadi. Ota o'g'lining ikki chakkasidan tutib, ko'zlariga tikildi.

– Barakalla, o'g'lim! – dedi ovozi titrab va mijjalarida yosh aylandi. – Barakalla!.. – U o'g'lining peshanasidan o'pib, dast ko'tardi-da, yelkasiga o'tqazdi va davra tomon yurdi.

Botir bayroqni yanada yuqori ko'tardi. Butun vujudi jimirlab, ko'zlariga chaqnadi.

Ikki faxriy chol Botirga mehr va zavq ila boqisharkan, beixtiyor chapak chalib yubordilar. Ularga o'qituvchi va o'quvchilar ham ergashdilar. Hammayoq olqishga to'ldi. Barcha Botirga va uning qo'lidagi bayroqqa tikilardi, ko'zlarida esa turli ma'nolar balqib turardi.

Botirning kichik akasi o'z sinfdoshlarining orasida safda turarkan, dadasi bilan ukasiga boqib, qaddini rostladi, yelkalarini ko'tardi. To'qqizinch sinfdan o'qiydigan katta akasi esa sinfdoshining ortiga berkinib, yerga qaragancha tirjaydi.

O'z so'risining ustida tik turib davrani tomosha qilayotgan xo'jalik mudiri g'o'Idirab qo'ydi:

– Obbo, qiztaloq, yangi bayroqni qaydan toptiykan?..

Botir hozir chinakam Mel Gibson edi va barchadan balandda turardi. Qo'lidagi bayroq esa yuksak-yuksaklarda mardona qanot ko'tardi.

"Ajdodlar mardona ruhi senga yor!" "G'alaba bog'i" yodgorlik majmuasiga yig'ilgan yoshlar aynan mana shu shior ostida bir nuqtada jam bo'ldi. Zangiota tumanidagi 32-umumta'l'm maktabi o'quvchilari "Ma'naviyat marafoni" loyihasi doirasida tadbirni "Matonat madhiyasi" yodgorlik majmuasiga gulchambar qo'yish bilan boshlashdi.

"AJDODLAR MARDONA RUHI SENGA YOR!"



Shundan so'ng Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti mas'ul ofitserlari, kursantlar va yoshlar "Shon-sharaf" davlat muzeyi bo'ylab tashkil etilgan ekskursiya davomida Ikkinchiji jahon urushida erishilgan g'alabaga xalqimizning qo'shgan ulkan hissasi, otaboborlarmizning Vatan tinchligi yo'lida ko'rsatgan jasorati, qahramonligi xususidagi ma'lumotlarga ega bo'ldi. Eksponatlar oldida

kechgan o'zaro suhbatlarda o'quvchilar kursant akalaridan o'zlarini qiziqtirgan savollarga javoblar oldi. Harbiylik, uning mas'uliyati, yurtga munosib bo'lish, jamiyatning rivoji uchun hissa qo'shish chin farzandlik burchi ekani alohida ta'kidlandi.

Muzey bo'ylab tashkil etilgan sayohat rasmlari tanloviga ularib ketdi. Unda o'g'il-qizlar musavvirlik mahoratini sinovdan o'tkazdi. "Vatanparvarlik" mavzusida yozilgan

eng yaxshi insholar va yod olingen she'rlar bo'yicha kechgan bahslarda esa kim nimaga qodir ekani yuzaga chiqди.

Xullas, "Ma'naviyat marafoni" doirasidagi tadbir o'g'il-qizlarning ko'nglini xushnud qilib, unutilmas taassurot qoldirdi. Tadbir yakunida eng iste'dodilar aniqlanib, g'oliblarga tashkilotchilarning esdalik sovg'alari topshirildi.

Mayor Sherqo'zi HAKIMOV

TANLOV



ENG YAXSHILAR TANLANDI

Nukus va Urganch garnizonlaridagi harbiy qism va muassasalar o'rtasida "Eng yaxshi kutubxonachi" va "Eng yaxshi madaniyat markazi boshlig'i" tanlovlарining harbiy okrug bosqichi o'tkazildi.

"Eng yaxshi kutubxonachi" tanlovida kutubxona faoliyati va kutubxonachilarning kasbiy mahorati, kitoblarni saqlash holati, kitobxonlarga ko'rsatilayotgan xizmat turlari, elektron katolog yaratilgani va undan foydalinish ko'rsatkichi, kitobxonlik kechalari, tanlovlar o'tkazilishi, Internet global tarmog'i yordamida berilgan mavzu bo'yicha ma'lumotlar bazasini shakllantirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalana olish qobiliyati kabi mezonlar bo'yicha baholab borildi.

Ishtirokchilar sohaga oid test savollarga javob berib, kutubxonaga

oid me'yoriy hujjatlar, yangiliklar, ma'naviy-mafkuraviy bilimlari, jahon va o'zbek adabiyoti vakillarining eng sara adabiyotlarni bilishi, kutubxonada mavjud bo'lgan adabiyotlardan mavzuga oid bibliografik ko'rsatkich tuzish, kutubxona fondi va adabiyotlar bilan ishlash, o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar rejasi va ssenariysini tuzish bo'yicha bilimlari sinovdan o'tkazildi.

– Harbiy qismlardagi kutubxonalarga o'quvchilarni jalb etish borasida xodimlar muntazam ish olib borishadi, – deydi Nukus garnizoni ma'naviyat va ma'rifat markazi boshlig'i kapitan Zuhreddin Alijanov. – Kitob taqdimotlari, adabiyot

vakillari ishtirokida uchrashuvlar, zakovat va shu kabi tadbirlar asnosida harbiylar hamda ularning oиласи, o'quvchi-yoshlar o'rtasida kitobxonlik targ'ib etilmoqda.

Yakuniy natijalarga ko'ra, Qurolli Kuchlar xizmatchisi Nodira Madrimova 1-o'rinni egallagan bo'lsa, "Eng ilg'or madaniyat markazi boshlig'i" tanlovida Qurolli Kuchlar xizmatchisi Gulzoda Mamatova g'olib bo'lib, Mudofaa vazirligi bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritdi.

G'olib va sovrindorlar munosib rag'batlantirildi.

Shimoli-g'arbiy harbiy okrug matbuot xizmati

Beshik ko'p asrlar avval hunarmandlarning aql-zakovati bilan ixtiro etilgan bo'lib, u haqdagi ma'lumotlar o'rta asr manbalarida, xususan Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'ati-t-turk" asarida, shuningdek Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" dostonida ham ta'riflangan. Uning kelib chiqishi haqida turli farazlar mavjud. Ko'chmanchi xalqlarga tegishli bu kashfiyat, ko'chib yurgan paytda onalarga ancha-muncha qulayligi bilan afzal sanalgan.

MING *yillar sadosi*



Zamonaviylashgan vositalar yaratilgan hozirgi paytda beshikka talab qanday? Bolani beshikka yotqizish chindan ham zararlimi? Manbalarda bu borada quyidagi ma'lumotlar keltirilgan: bolani beshikka belamay, qanchalik erkin qo'yilsa, shunchalik yaxshi rivojlanadi. Govrakech (*beshik yopqichi*) ning doimiy ravishda yopiq turishi natijasida quyosh nurlaridan baha olmagan go'dakda A, D vitaminini yetishmovchiligi kuzatiladi. Bu vitaminlar bolaning suyak to'qimalari rivojlanishi uchun zarur hisoblanib, usiz mushaklari yumshoqlashadi. Yumshagan a'zolarni bog'lash natijasida a'zolar qiyshayishi kuzatiladi. Oyoqlarning X-simon, O-simon bo'lib qolishi ana shular oqibatida yuzaga keladi. Yurtimizda har yili yuz minglab go'daklar tug'iladi. Shunday ekan, dunyoga kelgan bolalarning ko'pchiligi beshikda yotishini hisobga olsak, ushu mavzuni yana bir bor tahlil qilsak bo'ladi.

FOYDALI KASHFIYOT

Beshik bolani ulg'aytirish uchun foydali bo'lib, kichik va ixchamligi uchun uni istalgan joyga ko'chirib olish mumkin. Qolaversa, chaqaloqni parvarishlash uchun ham qulay. Beshik go'dakni tashqi salbiy ta'sirlardan, ya'ni shovqin, issiq va sovuq, oftobdan saqlaydi. Bundan tashqari, go'dak beshikka maxsus qo'l-oyoq bog'lag'ichlari bilan bog'lab qo'yilishi, uni uyquda bexosdan qilinadigan harakatlardan cho'chimay, osoyishtava tinch uplashiga imkon beradi. Shuningdek, belangan bolaning buti orasiga sumak, tagiga tuvak qo'yilishi uning tagi ho'llanishidan, shamollah va tanasining yallig'lanishidan saqlaydi, zax o'tmasligini ta'minlaydi. Beshik tut, tol yog'ochlaridan yasalib, bu vosita bolaning organizmiga foydalidir.

Naqshlarning yorqin ranglar bilan bezatilishi bolaning ranglarni tanish, ilg'ab olish funksiyasini rivojlantridi, beshikka osib qo'yilgan buyumlar esa uning qo'l harakatlarini rivojlantrishga yordam beradi. Beshik yasaladigan tol daraxti hidi yo'qligi bilan ham afzaldir. Qadimda tabiblar bemorlarga tol daraxtining tagida o'tirishni bejiz tavsiya qilmaganlar. Beshikning fasllarga moslangan yopinchiqlari esa bolani qishda sovuqdan, yozda issiqdan saqlab, mo'tadillikni ta'minlaydi. Uning tagiga tariq solingan qovus (*to'shakcha*) yozilishining ham katta ahamiyati bor. Bola terlaganida yoki qovus yuvilganda tez quriyi. Undan qilingan yostiqda bola yumshoqqina yotadi. Boshi va orqasi to'shakka botmaydi, aksincha massaj vazifasini bajaradi.

– Go'dakni beshikka belaganda to'g'ri bog'lanishi qaddini raso qilib rivojlantridi, – deydi beshikchilar sulolasini davom ettirib kelayotgan usta Abdurasul Rasulov.

YAXSHI NARSANING HAM ME'YORI BO'LADI

Lekin tajribasiz yosh onalarning bolani noto'g'ri parvarish qilishidan bola organizmida turli xil nuqsonlar paydo bo'layotgani beshikka bo'lgan qarashlarni o'zgartirmoqda. Ayrim onalarning go'dakni beshikka belab qo'yib, o'zi oila yumushlari bilan band bo'lishi, bolaning soatlab unda yotishi beshikning vazifasidan yaxshi foydalana olmasliklarini bildiradi.

Beshikda ko'p vaqt yotishi natijasida go'dakning orqa yelkalari qotib ketadi. Odam harakatda bo'lsagina, ovqatga talabi kuchayadi. Bolaning doimiy ravishda beshikda yotishi esa mushaklarni ko'pam harakatga keltirmaydi. Organizm ham oziq moddalarni talab etmay qoladi.

Bolalar shifokori Mohidil Alimardonovaning ta'kidlashicha, bolani faqatgina uxbayridan

paytda beshikka belagan ma'qul, uyqandan uyg'onganda esa uni yechib olib, tanasining orqa qismini uqalash darkor. Ayrim onalar bolalarini faqatgina tunda belaydilar. Kunduzi esa belanchak kabi vositalarda uxlatdilar. Bu ham yaxshi tanlov. Bola yig'layotgan vaqtida beshikni hadeb tebrataverish, uning asab tizimiga salbiy ta'sir ko'satisi mumkin ekan. Ayniqsa, bu bosh miyaning qon bosimi oshgan bolalarda yomon holatlarni yuzaga keltiradi.

ULARNING HAVASI KELADI

Millatimizning urf-odatlariga qiziqib qolgan yaponiyalik tanishimni qarindoshimizning beshik to'yiga olib bordim. To'yxonaga kirib borar ekanmiz, ayvonda quda tomondan keltirilgan chaqaloq uchun sarpo-surug'dan tortib, shar va yumshoq o'yinchoqlar bilan bezatilgan bolalar arg'imchog'igacha bo'lgan buyumlarga ko'zimiz tushdi. Ularning orasida bejirimgina bezatilgan beshik ham bor edi. Ochig'ini aytasak, bularni ko'rgan odam yayrab ketadi. Bizni iliq kutib olib, dasturxonga taklif qilishdi. Hamma mezbonlar chet ellik mehmon bilan ovora-yu, u bo'lsa beshigimizning atrofidan hech ketolmaydi. Tebranishiga ishqiboz bo'lib qoldi. Uning betakror naqshlar bilan tikilgan govrapechlari, "Ko'z tegmasin", deb osilgan tumrlari mehmonni o'ziga butkul jalg etib qo'ydi...

– Beshikka bo'lgan talab haligacha so'ngani yo'q. Hatto turg'unlik davrida beshiklar eskilik sarqiti, deb qaralgan bo'lsa ham odamlar qoplarga solib, uylariga beshik tashigan, – deydi beshikchi usta A. Rasulov. – Hozirgi kunda boshqa millat vakillari, xususan rus, koreys xalqi vakillari orasida ham o'z farzandlarini beshikda katta qilishga havasi keladiganlar bor. Ularda bu qiziqish o'zbek qo'shnilarini ko'rib uyg'ongan.

Beshikchi ustalarning aytishicha, hatto Qozog'iston, amerikalik o'zbeklardan ham yurtimizga kelgan mehmonlarga beshik olib kelish buyurtmasi tushar ekan.

– Agar bu buyum yomon bo'lganida, beshik an'analar shu vaqtga qadar yetib kelmagan bo'lardi, onalar esa o'z bolalarini beshikka belamasdilar, – deydi beshikchilar sulolasini davom ettirib kelayotgan Sur'at Akbarov.

SHU O'RINDA...

Beshikni eskilik sarqiti, deb hisoblovchi ayrim yosh ojalarga zamonaviy vositalarning salbiy jihatlari borasida ma'lumot berib o'tsak. Shuni ta'kidlash kerakki, onalar uchun qulay sanalib kelgan tagliklar reklamalarda namoyish etiladigan darajada bola terisini quruq holda saqlay olmaydi. Suyuqlik o'tkazishi, doimiy namlik bolada turli kasalliklarni keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, go'dakda bo'shanish refleksini tug'diradi. Beshik esa bolaning tagi doimiy ravishda quruq turishini ta'minlaydi.

Bolalarning doimiy hamrohi so'rg'ich haqida ham ikki og'iz so'z. So'rg'ich rezinadan tayyorlanadigan narsa, uning xomashyosi sun'iy bo'lganligi uchun rezina parchalarining oshqozonga joylashishi infektion kasalliklarni keltirib chiqaradi. Bolaning og'zi har doim rezina so'rg'ich bilan band bo'lishi so'rish refleksini qondirib, unda ko'krak suti va ovqat yeyishga bo'lgan talabni susaytrib yuboradi.

Xullas, go'dak ovqatni tez-tez talab qilmaganidan keyin unda oziglanish jarayoni buzilishi, kam ovqatlanish, oriqlash, vazn yetishmasligi holatlari uchrashi mumkin. So'rg'ichdan ko'p foydalangan bolalarning tili ham kech chiqadi. Mutaxassisning ta'kidlashicha, katta bo'lganida ham bunday bolalarning muhim jarayonlarni o'zlashtirishi qiyin kechar ekan. Ming yillardan beri xalqimizni o'z bag'ida tebratgan, buyuk bobo-yu momolarni katta qilgan beshigimiz bundan keyin ham xizmat qilaveradi. Endi unda kelajak avlod ulg'ayadi, ajodolarimizday baquvvat, tetik, alpqomat surriyotlarni katta qiladi.

**Muxlisa MO'MINOVA,
journalist**

Shunday bir tuyg'u bor. U mehmon bo'lgan dillarda faqat mehr-u vafo, odamiylik fazilatlari bo'y ko'ssata boshlaydi. Uni tosh-u taroziga solib, o'lchab bo'lmaydi. Lekin salmogi ulug'vor tog'lardan ham zalvarli. Bu sevgi, muhabbat deb ataladi.

U bo'y ko'ssatgan xonadondagi munosabatlarda mehr tafti sezildi.

Oilaga fayz-u baraka kiradi. Shu bois buvi-yu momolarimiz turmush quayotgan ikki yoshni "Hamisha bir-biringizga mehr ko'ssating" deya, duo qilishadi. Mehr rishtasi birin-ketin farzandlar dunyoga kelganda ulkan muhabbatga aylanadi. Muhabbatni oilaning qo'rg'oni deyishadi. Er-xotin va farzandlar esa uning mustahkam ustunlaridir.

Dilshodning qalbida harbiy sohaga bo'lgan havas muddatlari harbiy xizmatni o'tayotgan davrda paydo bo'ldi. Borib-borib bu havas chinakam maqsadga aylandi va xizmatni kontrakt bo'yicha davom ettirish istagini bildirdi. O'shanda ota-onasi ham uning qarorini ma'qulladi.

– Yigit kishi uchun Vatanni himoya qilmoq, muqaddas burch. Qaroringdan judayam xursandman, – dedi dadasi mammuniyat bilan. Onasining ham quvonchi ichiga sig'madi. Axir xursand bo'lmay bo'ladi. O'g'li harbiy sohada xizmat qilishni diliqa tugibdi. Ayol farzandini harbiy libosda tasavvur qilib shirin entikib qo'yidi...

Dilshod oradan bir yil o'tib, uylandi. O'zbekchilikda har kim xonadoniga kirib keladigan kelinni oqila, pazanda va eng asosiysi, xonadon sohiblarining hurmatini joyiga qo'yishini istashadi.

KELAJAK VORISLARI

Nukus garnizoni ma'naviyat va ma'rifat markazi qaytadan ta'mirlanib, zamonaviy qiyofa kasb etganidan so'ng bu maskanda o'quvchi-yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish maqsadida, fan va sport to'garaklari faoliyati keng yo'lga qo'yildi. Mental arifmetika to'garagi ham shular jumlasidan. 2021-yilning yanvar oyida tashkil etilgan mazkur to'garakka bugun Altinay Alpisbayeva rahbarlik qilib kelmoqda.

Respublika va xalqaro musobaqlarda faol ishtirot etib, faxli o'rinnlarni qo'iga kiritayotgan harbiylarning farzandlari natijalaridan mental arifmetika to'garagi samarali faoliyat olib borayotganini anglash mumkin. Jumladan, yaqinda Qozog'iston Respublikasining Chimkent shahrida o'tkazilgan IV Xalqaro mental arifmetika olimpiadasida O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston va Qoraqalpog'iston Respublikalaridan saralangan eng iqtidorli o'quvchi-yoshlar qatorida podpolkovnik Ilhomxo'ja Buvayevning 8 yoshli qizi Gulasalon Hasanboyeva hamda mayor Ravshan Sharopovning o'g'li Muzaffar Hasanov ham ishtirot etib, faxli 1-o'rinni qo'lga kiritdi.

Gulasal va Muzaffar ayni vaqtida Nukus shahridagi 44-umumta'l'm maktabining boshlang'ich sinflarida tahsil olishadi. Gulasal tabiatan uyatchan, kamtar, kamgap qiz. Sinfning a'llochi o'quvchilaridan. Muzaffar esa sho'x, ammo intizomli, uquvli bola. Ota-onalarining aytishicha, mental arifmetikasi ularning bilim olishdagi ko'nikmasini oshirgan.

BAXT HUKM SURGAN GO'SHA

Shahloxon shunday epli kelin bo'ldi va bu oiladagilarning mehrini qozondi...

Maqolani bejiz sevgi, muhabbat, vafo tuyg'ularini ta'riflashdan boshlamadik. Chunki biz hikoya qilmoqchi bo'lgan oilada bu tuyg'ularning buyuk qudratini his qilasiz. Oila boshlig'i kichik serjant Dilshod Abidov va Shahloxon Boymurodova mana o'n yetti yildirki, bir-birlarini mehr-muhabbat bilan ardoqlab kelishyapti. O'n yetti yillik sabr va muhabbat mevasisi bo'lgan Sherzod, Jahongir va Farangiz ularning baxt-u halovati.

Shahloxon pazanda, chevar, xullas o'zbek ayligiga xos ko'plab fazilatlar sohibasi. U yurt posbonining yo'ldoshi bo'lganidan, baxtli oila sohibasi ekanligidan behad shod ekanligini ta'kidladi. Dilshod aka ham turmush o'tog'idagi ana shu jihatlarni qadrlaydi. Shaxsiy hayotlari haqida so'alganda, bu juftlik bir-birining ijobji fazilatlarini sanab charchamaydilar. Balki shuning uchun ham harbiy shaharcha ahli bu baxtli juftlikka havas bilan qarashar.

– Olada er va xotin bir-birini tushunib, bir-biriga ko'makchi bo'lib yashashi kerak, deb o'layiman, – deydi biz bilan suhbatda Shahloxon. – Ana shundagina fayz bo'ladi. To'g'ri, harbiylik kasbining o'ziga xos qiyinchiliklari bor. Negaki turmush o'tog'ingizning yurt osoyishtaligi yo'lida o'tkazadigan behalovat kunlarida

siz ham birgasiz. Shu bois ham harbiylik mas'uliyatini, mashaqqatini yaxshi anglayman. O'zaro mehr-muhabbat rishtalari bir-birimizni qo'llab-quvvatlashga undaydi.

Men avvalo, taqdirmga shunday inson bitilganidan mammunman. Qachonki, er-xotin o'tasida mehr-oqibat, hurmat bo'lsa, o'tada hech qachon tushunmovchilik yuzaga kelmaydi. Turmush o'tog'im o'ta mulohazali, keng fe'lli, har qanday holatda bosiqlik bilan ish tutadi. Meni hurmat qiladi, tushunadi, kerak vaqtida o'z yordamini ayamaydi. Shuning uchun ham ularni juda qadrlayman. Ularga munosib bo'lishga harakat qilaman.

Albatta, harbiyning ayoli bo'lish sharafliga va mas'uliyatlari. Lekin har qanday sharoitda ham o'zaro ishonch va hurmatni asrash, sabr-qanoatli bo'lish oilani el hurmatiga sazovor qiladi, deb o'layiman. Biz umr yo'ldoshim ikkimiz ham hayotning ushbu mezoniga amal qilib yashab kelyapmiz. Shu kunga qadar oramizda hech qachon kelishmovchilik bo'lmagan ham shundan bo'lsa kerak, balki.

G'ayrat-u shijoati, qolaversa, insoniy fazilatlar bilan jamoadoshlari orasida hurmat qozongan kichik serjant Dilshod Abidov ham oilasi, turmush o'tog'i haqida shunday iliq fikrlarni bildirdi.

– Oila tebratishning o'ziga xos mas'uliyati bor. Farzand tarbiysi, ro'zg'or yumushlari, ish, xizmat – bularning barchasi insondon katta mas'uliyat, javobgarlik talab qiladi, – deydi u.

– Bu borada ota-onamizning o'gitlari, maslahatlariga tayanamiz. Ammo ota-onam biror marta bizga qattiq gapirmagan. Biron ayb ish qilib qo'ysak, yonlariga chaqirib, qilgan ishimizning oqibati yomon ekanligini yotig'i bilan tushuntirishgan. Ota-onam o'tasidagi o'zaro hurmat, mehr-oqibatga havasim kelardi. Ular bir-birini har doim avaylashardi, bir-biriga shirin muomalada bo'lishardi. Farzandlar umri davomida, avvalo ota-onalaridan ibrat olishadi, deb bejiz aytishmaydi. Bugun biz ham aziz insonlarimizdan o'rnak olib, hayot kechiriyapmiz...

Shahlo bilan birgalikda hayotning achchiq-chuchugini totib kelyapmiz. Uni eng yaqin ko'makchim, maslahatdoshim deb bilaman. Taqdir menga mana shunday oilani, turmush o'rtoqni tuhfa qilganidan juda baxtiyormen.

Biz yurtimizda shunday baxtli oilalar, baxtiyor insonlar safi kengayaversin, deb niyat qilib, qahramonlarimiz bilan xayrashdik.

Podpolkovnik
Gulnora HOJIMURODOVA

ULAR XALQARO OLIMPIADA G'OLIBLARI!

– O'ng va chap miya yarimsharlarining vazifalari turlicha bo'ladi, – deydi to'garak rahbari A. Alpisbayeva. – O'ng miya yarimshari sezgi, tasavvur, ijodkorlikka javob beradi, chap yarimshar esa xotira, mantiq va analistik fikrash, tezkorlik, diqqatni jamlash, aql va tafakkur uchun javobgar. Mental arifmetikasi esa ikkala yarimsharni bir vaqtning o'zida rivojlantiradi. Bu markazda dars berishdan avval boshqa joyda yoshlarga ham mental arifmetikasini o'rgatdim. Bilasizmi, qanday xulosaga keldim: harbiylarning farzandlarida o'zlashtirish nisbatan yaxshi. Chunki uyda ham ota-onalar farzandlari bilan shug'ullanadi. Ota-ona bilan birgalikda olib borilgan har qanday mashg'ulot esa albatta o'z mevasini beradi.

– Ikki qizim, o'g'ilim ham mental arifmetika to'garagiga qatnaydi – deydi Gulasalning onasi Yoqutoy opa. – Uyda bo'sh qoldi deguncha, dadasi boshchiligidagi matematik amallarni bajarishga kirishadi, musobaqa o'ynashadi. Mentalchilar oilasimiz (*kuladi*). Okrugimiz qo'mondonlonligi bolalarimizning ta'limgarbiyasiga befarq emas. Markazimizga bilimli

ustozlar jalb etilgan. Harbiy shaharchamizda har kun

bir yangilik, birimizning bolamiz champion, yana

birimizning bolamiz eng nufuzli ta'limg maskani

o'quvchisi, xorriga o'qishga

kirayotgan yoshlarimiz qancha. Maqtansa,

arzigu'luk-da! Bu yutuqlar,

yurtimiz tomonidan biz

harbiylarning oilalariga

qaratilayotgan e'tibor va

g'amxo'rliklar mahsuli, desam,

adashmagan bo'laman.

– Uchuvchi bo'lish uchun matematika, fizika fanlarini yaxshi bilish kerak, – deydi Muzaffar. (*O'zi 1-sinf o'quvchisi. Lekin fizika fani haqida keng tasavvurga ega ekanligini bildirib qo'yadi*). – Nyuton degan olim daraxt tagida yotsa, boshiga olma tushadi-yu, tortishish qonuni yaratiladi. Buni menga dadam aytib bergenlar. Men ham kelajakda uchuvchi, ixtirochi bo'laman, O'zbekistonimiz uchun yangi samolyot yarataman!

Darhaqiqat, harbiy shaharchada Gulasal va Muzaffar kabi iqtidorli yoshlar



juda ko'p. Ularning orzusi o'zlarini kabi beg'ubor. Asosiyasi, jajji qalb sohiblari bilimga chanqod, maqsad sari harakatchan, uddaburon, tashabbuskor yoshlar. Zero kelajak yoshlar qo'lida. Yoshlarimiz bilimli, salohiyatlari bo'lib ulg'ayar ekan, yurtimizda rivojlanish, yangilanish bo'laveradi. Biz esa yosh iqtidor egalariga kelgusida omad va zafarlar tilab qolamiz.

Shohista ABDURAHMONOVA,
Shimoli-g'arbiy harbiy okrug
matbuot xizmati

ENG FAOL, ILG'OR, TASHABBUSKOR

Inson qaysi sohada faoliyat yuritmasin, avvalo uning oilasida tinchlik hukm surishi lozim. Oilasi tinch bo'lgan insonning ko'ngli xotirjam bo'ladi. Harakatlarda aniqlik, qadamlarda shaxdamlik va burchga sadoqat ufurib turadi. Vatan himoyachisidek muqaddas kasbga umrini baxshida etgan harbiylar o'z oilasi bag'rida kamroq bo'lishi inobatga olansa, ularning turmushida ham turli tushummovchiliklar yuzaga kelishi tabiiy. Turmushning mushtlariga dosh berish va undan mardonavor "oshib" o'tishda xotin-qizlar va harbiy xizmatchilarning oila a'zolari bilan ishslash bo'yicha yetakchi mutaxassislarning o'rni beqiyos. Sharqiy harbiy okrugda bo'lib o'tgan Mudofaa vazirligi qo'shinlarida "Xotin-qizlar va harbiy xizmatchilarning oila a'zolari" bilan ishslash bo'yicha eng ilg'or yetakchi mutaxassis" tanlovi shu soha vakillarining yil davomida amalga oshirgan ishlari, erishgan yutuq va kamchiliklari sarhisobi vazifasini ham bajardi.



Mualif suratga o'gan

Rеспубликанинг турли гошларидан ташриф буярган танлов исhtirokchilarini Marg'ilon vokzalida tantanali kutib olgan Sharqiy harbiy okrug mas'ullari kunni Farg'ona viloyatining diqqatga sazovor joylariga ekskursiya uyuştirishdan boshladi. Sayohat davomida muzey, teatrغا ташрифлар амалга оширилди ва тарixiy obidalar mutaxassislar tomonidan tanishtirildi.

Shuningdek, mehmonlar Farg'ona "Muruvvat" nogironligi bo'lgan bolalar uchun internat uyida ham bo'lib, o'ksik ko'ngillarga ko'tarinkilik bag'ishladi. Shundan so'ng Qo'qon shahridagi harbiy shaharchada bandligi ta'minlangan ayollar, bu borada mavjud yutuq va kamchiliklar o'rganildi.

Dastlab tanlov ishtirokchilari uuda tayyorlanib kelishi kerak bo'lgan vazifalar bo'yicha baholandi. Unga ko'ra, yetakchi mutaxassis yil davomida amalga oshirgan ishlari yuzasidan har bir suratga izoh bergen holda fotoalbom tayyorlashi hamda slayd ko'rinishidagi hisobotni hakamlar hay'atiga taqdim etdi. Keyingi shartda esa 20 ta test savollari vositasida kasbiy tayyorgarlik darajasi hamda turli holatdagi vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish mahorati sinovdan o'tdi.

– Tanloving shaffof o'tishi uchun turli soha mutaxassislarini jalb etdik. Qaysi ishtirokchi kuchli va boy tajribaga ega bo'lsa, o'sha mutaxassis yuqori o'rinni zabit etsin! Ishtirokchilarning ish faoliyati bilan bevosita tanishganman. Ularning salohiyati nimalarga qodirligini ham bilaman. Ayrim ishtirokchilar faoliyati davomida vazifalarini do'ndirib bajarib qo'yan bo'lsa-da, uni hay'at a'zolariga qisqa va lo'nda taqdimot qila olmaydi. Ayrimlari esa aksincha. Shuning uchun baholash mezonlarida shu kabi holatlarni ham inobatga olamiz. Bizga birinchi navbatda, harbiylar oilasidagi totuvlik, ayollarining bandligi va farzandlarining sog'lom avlod bo'lib voyaga yetishishlari uchun qilinadigan amallar muhim. Hisobot uchun bir qancha samarasiz tadbirlarni o'tkazishdan ko'ra, bitta bo'lsa ham harbiy xizmatchining oilasidagi nizo sababini topib, unga yechim izlash birlamchidir. Shunday ekan, ishtirokchilardan talab



qidaganimiz ham samarali tadbirlar bilan muntazag ishslash va natijaga erishish, – deydi Zulfiya Mansurova. – Bu yilgi tanlovda qatnashayotgan yetakchi mutaxassislar orasida Farg'ona vodiysiga umuman kelmaganlari ham bor ekan. Demak, tanloving turli hududlarda o'tkazilishi ham maqsadga muvofiq bo'lmoqda. Fursatdan foydalaniib, ushbu tanlovin ko'tarinki ruhda o'tkazilishida o'z xizmatlarini ayamagan Sharqiy harbiy okrug qo'mondonligiga minnatdorlik bildiraman.

Tanlov ishtirokchilarining chiqishlari hay'at a'zolari tomonidan sinchkovlik bilan kuzatib, baholandi. Bahslar murosasiz va munozaralarga boy bo'ldi. Harbiy okruglar o'ttasida: 1-o'rinni Odina Odilova (THO), 2-o'rinni Gulbahor Habibullayeva (SHGO), 3-o'rinni Tamara Mamanova (JGMHO) qo'liga kiritdi. Harbiy qism va muassasalar yetakchilari o'ttasida: 1-o'ringa Diloromxon Mamatova (SHHO), 2-o'ringa Zilola Madumarova (THO) va 3-o'ringa Farog'at Hayitova (SHHO) loyiq ko'rildi.

G'olib va sovrindorlarga diplom hamda qimmatbaho sovg'alarni Sharqiy harbiy okrug qo'mondoni general-mayor Oybek Saidov topshirdi.

Sherzod SHARIPOV,
«Vatanparvar»

Iordaniyaning Amman shahrida taekvondo WT bo'yicha navbatdagi xalqaro turnirlardan biri – "Butunjahon taekvondo federatsiyasi prezidenti kubogi" uchun musobaqa o'tkazildi. Unda 5 nafar taekvondochimiz qatnashdi va yakunda barchasi shohsupaga ko'tarildi. Sovrindorlarning 3 nafarini Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi (MVSM) vakillari tashkil etdi

BARCHA QATNASHCHIMIZ SOVRINDOR!

Taekvondochilarimiz mashg'ulotlarda o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalarini turli musobaqlarda sinovdan o'tkazmoqda, o'z jamg'armalarini medallar bilan boyitmoqda. 2023-yil davomida terma jamoamiz a'zolari Fransiya, Germaniya, Rossiya, Janubiy Koreya, Xitoy, Misr, BAA kabi turli davlatlarda o'tkazilgan 20 dan ortiq nufuzli turnirda, Gran-pri turkumidagi musobaqlarda hamda Osiyo o'yinlarida ishtirok etishdi va 83 ta oltin, 54 ta kumush va 50 ta bronza medalni qo'lga kiritishdi. "Butunjahon taekvondo federatsiyasi prezidenti kubogi" uchun o'tkazilgan musobaqa ham sovrinlardan xoli bo'lmadi.

Mazkur musobaqa G2 tasnididan o'r'in olgan bo'lib, o'z vazn toifalarida g'alaba qozongan sportchilar Olimpiada reytingi uchun qimmatli ochkolarga ega bo'lishi bilan ham muhim ahamiyat kasb etardi. Shu bois garchand to'liq tarkibda bo'limasa-da, taekvondochilarimiz ushbu xalqaro turnirga ham o'ziga xos tayyorgarlik ko'rishdi va yakunda bu o'z samarasini berdi – lordiniyaga borgan besh nafar sportchimizning barchasi shohsupaga ko'tarildi!

Hamyurtlarimizning muvaffaqiyatlarini Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi vakili Jasurbek Jaysunov boshlab berdi. -74 kg vazn toifasida dayanga chiqqan armiyamiz sportchisi finalga qadar bahslarda barcha raqiblarini mag'lubiyatga uchratdi. Hal qiluvchi so'nggi raqobatda esa taekvondochimizdan biroz omad yuz o'girdi va u Kubok bahslarining kumush medali bilan taqdirlandi hamda qimmatli reyting ochkolariga ega bo'ldi.

MVSMning, o'z navbatida, mamlakatimiz terma jamoasining boy tajribaga ega taekvondochisi, ya'ni jahon championatlarining uch karra sovrindori, 2018-yilgi Osiyo o'yinlari g'olib, 2018-yilgi Osiyo championi Nikita Rafalovich ham lordaniyada shohsupaga ko'tarildi. Endi jarohat asoratlaridan qutulib boshlagan sportchimizga dastlab iordaniyalik Bani Samir raqiblik qildi. Mezbonlar vakiliga qarshi mazkur raqobat ancha murakkab kechdi. Undan va keyingi bahslardan muvaffaqiyatlari o'tgan sportchimizdan, baribir finalda omad yuz o'girdi va kumush medal bilan kifoyalandi. Turnirning birinchi kuni bahslarga qo'shilgan terma jamoamiz a'zosi Feruza Sodiqova (-62 kg) esa

yakunda "o'zining sevimli bronza medali"ga egalik qildi. Zero bu safar Feruza "ketma-ket ikki marta dunyo birinchiligining bronza medali sohibasi" sifatida dayanga chiqqandi!

Ikkinchki kun
bahslarida qatnashgan
taekvondochilarimizdan
Shuhrat Salayev (-80 kg)
va MVSM vakili Svetlana
Osipova (+73 kg) o'z
vazn toifasi bo'yicha
bahslarning bronza
medalini qo'lga kiritishdi.

Shu tariqa,
sportchilarimiz “Butunjahon
taekvondo federatsiyasi
prezidenti kubogi” uchun
bu yilgi musobaqani 2 ta



KAMONDAN OTISH



 Tarkibidan Mudofaa vazirligi Olyi sport natijalarini rivojlantirish markazi (*MVSM*) vakillari ham o'rin olgan kamondan otish bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi a'zolari "Parij – 2024" litsenzion turnirlarida qatnashish uchun Tailandga jo'nab ketgan edi. Hamyurtimiz Ziyodaxon Abdusattorova finalgacha bahslarni muvaffaqiyatli o'tkazdi va bu unga Olimpiada yo'llanmasini taqdim etdi. Shu tariqa, kamondan otish bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi tarixida ilk bor vakilimiz Olimpiada yo'llanmasiga ega chiqdi.

BODIBILDING



 Janubiy Koreyaning Vonju shahrida bodibilding va fitnes bo'yicha o'tkazilgan 14-jahon championatida mamlakatimiz sportchilari 2 ta oltin medalga sazovor bo'lishdi. Terma jamoamiz a'zolaridan Baxshulla Sayfullayev bodibilding yo'naliشhida, Shohruхmirzo Ergashev fizik yo'naliشhda championlikka erishdi. Ularning g'alabasi sharafiga Vonjuda O'zbekiston madhiyasi yangrab, bayrog'imiz yuksak ko'tarildi.

UNIVERSIADA

Qozog'istonning Turkiston shahrida tashkil etilgan II Turkiy davlatlar universiadasi yakunlandi. Mazkur musobaqada Markaziy Osiyo davlatlari, Turkiya, Ozarbayjon talaba-sportchilari voleybol, shaxmat, erkin va yunon-rum kurashi, dzyudo, stol tennisni bahslarida o'zaro raqobatlashdi. 70 nafardan ziyod sportchi-talabasi ishtirot etgan musobaqa yakunida O'zbekiston delegatsiyasi 15 ta oltin, 11 ta kumush, 10 ta bronza, jami 36 medalni qo'lga kiritib, umumjamoa hisobida 1-o'rinni egalladi.

GANDBOL



Toshkentda qizlar jamoalari o'ttasida gandbol bo'yicha U-18, U-20 yosh toifalari o'ttasida "Trofi" kubogining Osiyo bosqichi bahslari bo'lib o'tdi. Hindiston, Bangladesh, Gonkong va O'zbekiston jamoalari o'ttasida tashkil etilgan musobaqaning har ikki yosh toifasida hamyurtlarimiz g'alaba qozondi. Aylana tizimida kechgan turnirning so'nggi bellashuvida o'smirlarimiz Bangladesh jamoasini 38:15, yoshlarimiz esa Gonkongni 46:27 hisobida dog'da qoldirdi.

YENİ ATLETİKA



 BAAning Dubay shahrida yengil atletikaning yarim marafon yo'nalishi bo'yicha o'tkazilgan Osiyo championatida O'zbekiston ayollar terma jamoasi a'zolari 2 ta kumush medalni qo'lga kiritishdi. Musobaqaning yakkalik yo'nalishida 1 soat 13 daqiqqa 29 soniya natija qayd etgan hamyurtimiz Sitora Hamidova 5 yil avval o'zi o'rnatgan O'zbekiston rekordini yangilashga erishdi. Ushbu natija yurtdoshimizga kumush medalni taqdim qildi. Mazkur dasturda ishtirok etgan terma jamoamiz a'zolaridan Marina Xmelevskaya sakkizinchı, Aziza Mirakbarova o'n yettinchi bo'lib marraga yetib keldi. Uch nafar sportchimizning umumiylis hisobdagisi 3:46:08 natijasi ularga qit'a championatining jamoaviy dasturidagi kumush medalini taqdim etdi.

SPORT KURASHI AR





Yunon-rum kurashi bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi a'zolari Belarusda tashkil etilgan Olimpiada championi Oleg Karavayev xotirasiga bag'ishlangan xalqaro turnirda ishtirot etishdi. Kurashchilarimizdan Abdullo Aliyev (-72 kg) oltin, Jasurbek Ortiqboyev (-55 kg) va Abror Atabayev (-77 kg) kumush, Islomjon Bahromov (-63 kg), Mahmud Baxshulloev (-72 kg) hamda Muhammadqodir Rasulov (-82 kg) bronza medalga sazovor bo'lishdi.



BORGAN SARI OMMALASHAYOTGAN “BARBI” VA “BATMAN”

yoxud o'ynichoqlar ham tarbiya
vositasi(mi?)



Mutaxassislar fikricha, insonning kelajakdag'i hayoti, uning qanday kasb tanlashi bolalik davridagi o'ynichoqlariga ham bog'liq ekan. O'ynichoqlarning bola ruhiyatiga, uning ma'nnaviy va jismoniy salomatligiga foydali va zararli tomonlari qanday? Quyida shu haqda fikr yuritamiz.

Biz avvalo, o'ynichoq do'konlarida bo'lib, u yerda sotilayotgan mahsulotlar bilan qiziqdir. Do'kon peshtaxtalarida qizaloqlar uchun asosan "Barbi", "Bonny", "Sammi", "Beautiful girl", "Nighty-Nite" qo'g'irchoqlari, "Sweet" nomli oyna-taroq, pardoz-andoz buyumlaridan iborat jamlanma taklif etilmoqda. O'g'il bolalarga mo'ljallab esa "Shock trans", "Combat Mission", "Fors", "Twint Liav The tease land", "Air super gun", "Super weapon", "Future Weapon Warrior Heroic Fighter", "Mightiness", "Kombinatsiya stali i jeleza" kabi jangovar qurollar, "Lego robot", "Kombat", "Transformer", "Super Robot" singari robot o'ynichoqlar, "Batman", "Spiderman", "Shrek", "Nindzyalar", "Simpsonlar", "Vinni Pux" kabi film va multfilm qahramonlarining qo'g'irchoq va o'ynichoq shakllari, qo'rinchli niqoblar, musiqiy o'ynichoqlar terib qo'yilgan.

Do'konda bolaning intellektual salohiyatini oshirish hamda uy-ro'zg'or yumushliriga o'rgatishga, kasby yo'naltirishga qaratilgan o'ynichoqlar, jumladan elektron doska, ichma-ich qutilar, chelak va belkuraklar to'plami, koptok, kubiklar, kaleidoskop, mozaika, cho'milish balloni, ovozli alifbo ham borligiga guvoh bo'dik. Afsuski, ular orasida milliy ruhdagi o'ynichoqlarimiz sanoqli.

**Shu o'rinda, biz
o'ynichoq ishlab chiqaruvchi
korxona ta'sischisi Alijon
YUSUPOVDAN O'zbekiston va**

dunyo o'ynichoqlar bozoridagi talab va taklif haqida surishtirdik:

— Yaqinda xalqaro o'ynichoqlar ko'rgazmasida bo'lib qaytdik. Yirik o'ynichoq fabrikalari mutasaddilaril bilan muloqot qilganimda ko'pgina rivojlangan davlatlarda bolalarga telefon ishlashiga ruxsat berilmayotgani sababi ularda yaratuvchanlik qobiliyati sustlashayotganini ayтиб o'tishdi. Telefonning or'nnini bosish uchun ko'proq mantiqiy, qo'l motorikasini rivojlantiruvchi o'ynichoqlarga talab kuchayibdi. Keyingi yillarda plastmassa emas, ekologik toza, yog'ochdan ishlangan o'ynichoqlar yaxshi sotilyapti. Ular hali bizning bozorga kirib kelganicha yo'q. O'zbekistonda asosan Xitoydan keltirilgan plastmassa o'ynichoqlar xaridorgir. Hozir ikkita korxonam bor, u yerda ishlab chiqargan o'ynichoqlarimizni 7-8 ta davlatga eksport qilamiz, mahalliy o'ynichoq do'konlariga tarqatamiz. Qishda asosan, uydya o'ynaladigan mantiqiy o'ynichoqlar, bahordan boshlab varraklar, koptoklar, suv pistoletlari yaxshi sotiladi. Biz milliy o'ynichoqlar ishlab chiqarmaymiz, chunki ularga talab deyarli yo'q. Agar otanolar va bolalarda talab bo'lsa, tadbirdorlar ishlab chiqaradi. Talab bo'lishi uchun milliy o'ynichoqlar targ'ibotini kuchaytirish kerak.

O'YINCHOQLAR BOLADA QANDAY XUSUSIYATLARNI SHAKLLANTIRADI?

* Kubik-rubik, lego kabi o'ynilar nafaqat bolalar ongini o'stiradi, balki ularda rang ajratish qibiliyati to'g'ri shakllanishiga yordam beradi. Bundan tashqari, bolada emotsiya, muloqot, intellekt, yaratuvchanlik xususiyatlarini uyg'otadi;

* bolalar lotosi sanashni, meva va jonivor turlarini ajratishni o'rgatadi. Bola tabiatni sevadi va asrashga harakat qiladi. Lotoda bola sabzavotlarni alohida, hayvonlarni alohida turlarga bo'lib yig'adi. Bunday bolalar kelajakda metematika va mantiqni yaxshi o'zlashtiradi;

* bolalar dominosi ham turli suratlarga boy bo'ladi. Bolada sanoqni eslab qolish orqali xotira rivojlanadi;

* qizlar uchun go'dak qo'g'irchoq mos keladi. Chunki bunday qo'g'irchoqlar barbi kabi emas, jajilarga mos kiyintirilgan bo'lib, do'mboq va pardozdan xoliligi bilan ajralib turadi. Qizaloqlar qo'g'irchoqni aravachasida sayr qildirishlari, ovqatltirishlari mumkin. Shu orqali bolalarda o'zidan kichiklarga nisbatan mehr-shafqat hislari shakllanadi;

* bolalarda o'ynichoq mashinalarga bo'lgan qiziqish asosan uch yoshdan so'ng uyg'onadi. Texnikaga qiziqish o'g'il bolalar uchun tabiiy holat. Mashina turlaridan "KamAz", yengil avtomobil, quruvchi mashinalar mos keladi. Jangovar tanklar va o'tochar mashinalarga to'xtalmagan ma'qul;

* suvda o'ynaladigan o'ynichoqlar bolaning chiniqishiga yordam beradi. Tog'ora yoki suv havzasida cho'milish jarayonida bola qayiqcha, koptok, suv

jonivorlarini o'ynab, energiya sarflaydi. Mushaklari chiniqib, suv haroratiga ko'nikma hosil qiladi;

* qurilish, hamshiralik anjomlari, bog'dorchilik qurollari ham kelajakda kasb tanlashga ko'maklashadi. Bola atrof-tevarak obodligiga o'z hissasini qo'shgandek bo'lib quvonadi. Qurish, yasash, yaratish orqali ularda mehnatdan zavqlanish hissi uyg'onadi;

* musiqiy o'ynichoqlar: pianino, baraban va boshqa asboblar bolalarda tinglash qobiliyatini rivojlantiradi. Musiqaga qiziquvchi bola shunday o'ynichoqlar vositasida musiqani saralashni, farqlashni o'rganadi;

* konstruksiyalar orqali qurish, qo'shish, yaratish mumkin. Bitta to'plamdan turli o'ynichoqlarni yasash bolada ijodiy va yaratuvchanlik qobiliyatini shakllantiradi.

ZARARLI O'YINCHOQLAR HAM YO'Q EMAS!

* "Barbi", "Sindi", "Semmi" kabi yarimyalang'och ko'rinishdagi qo'girchoqlar "ommaviy madaniyat"ni targ'ib etadi. Ularni o'ynayotgan qizaloqda unga o'xshab kiyinish va pardoq qilish xohishi paydo bo'ladi, shunga taqlid qiladi;

* yumshoq o'ynichoqlar aksariyati sun'iy materiallardan tayyorlangan va changni ko'p yutadi. Bunday o'ynichoqlar to'qimasi nafas yo'llariga yoki og'izga tushsa, noxush oqibatlarga olib kelishi mumkin;

* monstr va maxluq qiyofasidagi niqoblar bolada faqat qo'rquv hissini shakllantiradi. Uni o'ynayotgan bolakay o'zini atrofdigilardan kuchli hisoblab, boshqa bolalar ustidan hukmonlik o'rnatishga harakat qiladi.

**O'YINCHOQLAR bolalar
salomatligiga qanday
ta'sir o'tkazishi xususida
bolalar shifokori Muazzam
IBROHIMOVA shunday deydi:**

— Turli yoshdagagi bolalar uchun xavfsizlik talablari farqlanadi. Bola qancha kichkina bo'lsa, o'ynichoq chidamli bo'lishi kerak: chaqaloq qo'liga tushgan narsani og'ziga soladi, yalaydi va istagan paytda otib yuborishi mumkin. Uch yoshgacha bo'lgan bolalarga mo'ljallangan o'ynichoqda barcha qismlar yetarlicha katta bo'lishi kerak, chunki bola ularni yutib yuborishi mumkin. Mo'rt plastik, shisha yoki o'ta qattiq temir o'ynichoqlarni ham bolajonlar o'liga tutqizib bo'lmaydi.

Barcha ishlab chiqaruvchilar ham vijdoni emas. Masalan, o'ynichoq qutisiga "tabiiy" va "ekologik mahsulot" tamg'asi urilgani bilan har doim ham talabga javob beravermaydi. Tabiiy teri va mo'yna ishlatilgan o'ynichoqlar uch yoshgacha bo'lgan bolalar uchun taqilanganadi, chunki ular nafas yo'llari allergiyasini chaqirishi yoki terida toshmalar paydo qilishi mumkin.

Chiqindi qog'oz, plastmassa yoki eski kiyimlardan umuman o'ynichoq yasash mumkin emas. Bizning uyda qizim Bekzoda turli konstruktorni yig'ishni yaxshi ko'radi, bu mashg'ulotga barcha oila a'zolarini jaib etadi. Hozirda elektron mashina yasashga kirishgan.

**Kattalar farzandiga qanday
o'ynichoqlar olib bermoqda?**

**Shu savolga javob topish
maqsadida ijtimoiy tarmoqdagi
onalar guruhi yuzlandik.**

Lobar XAYRULLAYEVA:
Psixologlarning ta'kidlashicha, agar bolangiz ko'p kasal bo'layotgan bo'lsa, unga doridarmon, vitaminlar emas, yangi o'ynichoqlar olib bering. U bola ruhiyatiga ta'sir qilib, salomatligi ijobji bo'lismiga hissa qo'shadi. Mening besh yoshli qizim bor. Unga o'ynichoq tanlayotganimizda tanlovi avval o'ziga qo'yib beraman. Lekin ko'pgina hollarda qizim rang-barang kiyangan, G'arb tarbiyasi ufurib turgan "Barbi" qo'g'irchog'ini tanlaydi. Keyin unga sekin tushuntiraman. Do'konda unga ayтиб bergan "Zumrad va Qimmat" ertak qahramoni Zumrad ham borligini eslataman. U esa ko'proq "Barbi"ni xohlayotgan bo'ladi.

Biz "Barbi"ni ham, "Zumrad"ni ham sotib olamiz. Unga kelgach, ularni solishtirishni boshlyaydi. Men Zumradning ijobji tomonlarini ayтиб beraman. Hozir qizim ko'proq Zumrad qo'g'irchog'ini o'ynayapti. Bolaga hech qachon mana shu o'ynichoqni o'ynaysan, deb bosim qilmaslik kerak. Farzandimga shu bilan birga aqliy qobiliyatini rivojlantiruvchi o'ynichoqlar: mozaika, kubik-rubik, sochma o'ynichoqlar, rasmlari bo'yaldigan kitoblar ham olib beraman. Agar bolalarimiz vatanparvar, yurtini sevuvchi bo'lib o'sishini xohlasak, o'zimizning milliy qahramonlarimiz Alpomish, Barchinoy, Jaloliddin Manguberdi, To'maris kabi qo'g'irchoqlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish kerak.

Oydin YO'LDASHEVA:
Rivojlangan mamlakatlarda ota-onalarga kichkintoylar uchun musiqali, so'zlovchi, funksiyalari tayyor o'ynichoqlardan ko'ra, ko'proq yig'iladigan, qo'llar uchun foydali, o'ylab, fikrlab o'ynaladigan o'ynichoqlarni sotib olishni tavsiya qilişadi. Shunga amal qilaman. Albatta, bola yoshini ham hisobga olish kerak.

Dilshoda G'YO'IPOVA:
O'g'lim o'zi tomosha qilgan multfilmlarning o'ynichoqlarini yig'ishga qiziqadi. "O'rgimchak odam", "Batman", "Superman" kabi qahramonlarni to'plagan. Ularni o'zaro urishirib, qo'shni bolalarga sahna ko'rinishi qo'yib berardi. Afsuski, do'konlarda shulardan boshqa o'ynichoqlar yo'q, milliy qahramonlarimiz gavdalantirilgan mahsulotlarni topolmaysiz. Keyin esa o'g'limni sportga berdim, chunki "Superman" kabi kuchli bo'lismi istardi. Hozir musobaqlarda yuqori o'rinnari olyapti. Bola boshidan ma'lum bo'larkan. U o'ynayotgan o'ynichoqlarga qarab, yo'nalish berish mumkin. Qizim esa ko'pincha "doktor-doktor" o'ynichoqlarini tanlaydi. Balki kelajakda shifokor bo'lsa, ajabmas.

Do'kon va bozorlarda o'ynichoq tanlar ekansiz, xushyorlikni qo'dan bermang! Bolakay uning ijobji va salbiy ta'sirini anglamagan holda o'ynayverishi mumkin. Ammosiz – ota-onalar o'ynichoq to'g'ri tarbiyaning asosi ekanini unutmang!

**Nodira IBROHIMOVA,
jurnalist**

UZVIY

O'zbekiston Respublikasi
mudofaasiga ko'maklashuvchi
"Vatanparvar" tashkilotining Xorazm
viloyati kengashi tasarrufidagi
"Xiva-karvon" o'quv sport-texnika
klubi jamoasi nafaqat malakali kasb
egasi bo'lgan haydovchilarni, balki
ma'naviy yetuk vatanparvarlarni
tarbiyalashni ham o'z oldiga
maqsad qilib qo'ygan.

HAMKORLIK

“Vatanparvar” tashkiloti “Xiva-karvon” o‘quv sport-texnika klubni jamoasi tizim tashkilotlarida faoliyat olib borayotgan barcha hamkasblarini “Vatanparvar” tashkilotining 32 yilligi bilan samimiy tabriklaydi. Amalga oshirayotgan xayrli va ezgu ishlaringizda omad yor bo‘lsin, aziz hamkasblar!



Mazkur o'quv sport-texnika klubida bo'lajak haydovchilar uchun kerakli shart-sharoitlar yaratilgan bo'lib, jumladan ma'naviyat-ma'rifat xonasi, axborot-resurs markazi, avtodrom, o'quv xonalari, yigirmaga yaqin o'quv-mashhq avtomobili va boshqa o'quv inshootlari faoliyati yo'lga qo'yilgan. Shu tufayli avtomobilarni epchillik bilan boshqarish, xavfsiz harakatlanish bo'yicha darslar olib borilib, tegishli ko'rsatma va tushunchalar berilmoqda. Ayni paytda bu yerda "B", "BC", "C" hamda "E" toifali haydovchilar tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatmoqda.

- Tashkilotimizda yoshlarning jismoniy, maʼnaviy-ruhiy jihatdan yetuk boʼlishlariga ham alohida eʼtibor qaratilmoqda, – deydi OʼSTK boshligʼi Alliyor Tojiyev.
- Shu kunlarda klub qoshida “Havo

Shu kuniarda kis qesnida "Have

miltig'idan o'q otish", "Yozgi biatlon" kabi seksiyalarda o'ttiz nafarga yaqin yosh muntazam shug'ullanmoqda. Ularga tajribali murabbiylar tomonidan qiziqarli mashg'ulotlar olib borilmoqda. Albatta, sport yo'riqchilarining bu boradagi mehnatlari besamar ketmayapti. Shogirdlari respublika va viloyat miqyosida o'tkazilayotgan musobaqalarda sovrinli o'rirlarni qo'lga kiritishmoqda.

Turdosh tashkilotlarda bo'lgani kabi mazkur o'quv sport-texnika klubida ham "Vatanparvar" tashkilotining 32 yilligini munosib tarzda kutib olish va nishonlashga qizg'in hozirlik ko'rilmogda. Ushbu sana munosabati bilan Xiva shahridagi ta'lim muassasalarida "Vatanparvar – mening tanlovim!" shiori ostida turli ma'naviy-ma'rifiy va harbiy-

vatanparvarlik tadbirleri, uchrashuvlar, davra suhbatlari hamda sport musobaqalari o'tkazilayotganligi shular jumlasidan. Yaqinda tashkil etilgan ochiq eshiklar kuni ham ana shu muhim sanaga baq'ishlab o'tkazilgan tadbirler sirasidan.

Klub jamoasining Xiva shahridagi mактаб va mактабgачa ta'lim tashkilotlari bilan hamkorligini erishilayotgan muvaffaqiyatlar garovi sifatida e'tirof etish mumkin. Chunki bu yerga kelayotgan mактаб o'quvchilarini hamda bog'cha tarbiyalanuvchilarining keti uzilmaydi. Bolajonlarda O'STКga tashkil etilayotgan ekskursiya katta taassurot qoldiradi. Ular uchun klubda harakatlanish xavfsizligi bo'yicha qiziqarli mashg'ulotlar o'tkazilmoqda. Eng muhim, bolalar ko'cha va yo'llarda harakatlanish qoidalarini bolaligidanoq o'rganyaptilar.



FAOL ISHTIROK ETAYLIK

Respublikamizda yong'in xavfsizligini ta'minlash maqsadida 2023-yil 15-noyabrdan 15-dekabrga qadar "Yong'in xavfsizligi oyligi" o'tkazilmoqda.

Xalq xo'jaligi maskanlari va aholi turarjoylarini yong'in xavfsizligi talablariga mos holga keltirish, korxona, muassasa va tashkilotlar rahbarlarini hamda fuqarolarni yong'in xavfsizligi qoidalariga riyo etish borasidagi mas'uliyatni oshirish, sodir bo'lishi mumkin bo'lgan ko'ngilsiz holatlar va yong'inning oldini olish maqsadida aholi o'tasida keng qamrovli targ'ibot-tashviqot va tushuntirish ishlarini olib borish "Yong'in xavfsizligi oyligi"da eng asosiy vazifalaridan deb, belgilangan.

Hozirgi kunda Mudofaa vazirligi tizimida ham yong'in xavfsizligi sohasiga berilayotgan ulkan e'tibor bilan birga yaratilgan sharoitlar zamonaviy turdag'i yong'in o'chirish avtomobil texnikalari hamda anjomlari shu bilan birga bino va inshootlarni yong'in xavfsizligi tizimlari bilan jihozlanganligini taqqoslash, yurtimizdagi keng qamrovli islohotlar va yangilanishlar samarasini yana bir bor chuqur his etish mumkin. Biroq bu imkoniyatlar kelgusida yong'in va ko'ngilsiz holatlar bizda yuz bermasligiga kafil bo'lomaydi.

Birgina misol, joriy yilning 1-noyabr holatiga ko'ra, respublikamizda 8 293 ta yong'in sodir bo'lib, oqibatda 56 nafar fuqaro halok bo'ldi hamda 135 nafar fuqaro turli darajada tan jarohati oldi.

Olov inson ehtiyoji uchun xizmat qiluvchi muhim vosita. Biroq olovdan niyoyatda ehtiyyotkorlik bilan foydalanish zarur. Ozgina ehtiyyotsizlik ko'plab noxushliklarga sabab bo'lishi, moddiy boylik va mulklarni kulga aylantirishi, eng xavflisi – inson hayotini xatarga qo'yishi mumkin.

✓ ANJUMAN

RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI MUHOKAMA QILINDI

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi tomonidan "Vatanparvar" tashkilotida sportning texnik va amaliy turlarini rivojlanirish istiqbollari: muammo va yechimlar" mavzusida ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazildi. "Vatanparvar" tashkilotining 32 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan ushbu tadbirda O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sportni rivojlanirish vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti hamda "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi rahbariyati va hududiy kengashlarining raislari ishtirok etdi.



Konferensiyanadan ko'zlangan asosiy maqsad davlat va jamoat tashkilotlari hamda "Vatanparvar" tashkiloti o'tasida sportning texnik va amaliy turlarini rivojlanirish va chaqiriluvchilar orasida ommaviy sport ishlarini tashkil etish bo'yicha o'zaro hamkorlik ishlarini yanada kuchaytirish, sportning texnik va amaliy turlarini yanada ommalashirish bo'yicha istiqboldagi qoshimcha chora-tadbirlarni belgilab olishdan iborat.

Tadbir ishtirokchilari, shuningdek so'nngi uch yilda "Vatanparvar" tashkiloti sportchilari tomonidan avtokross, motokross, karting, duatlon, triatlon, yozgi biatlon, pnevmatik quroldan o'q otish, modelchilik kabi sportning texnik va amaliy turlari bo'yicha o'tkazilgan O'zbekiston, MDH, Osiyo va jahon championatlarda yuqori o'rinnlari egallaganliklarini yuksak e'tirof etdilar. Birgina misol, 2023-yilning 9 oyi davomida tashkiloti sportchilari O'zbekiston milliy jamoalari tarkibida 7 ta xalqaro sport musobaqlarida faol ishtirok etib, shundan 17 ta oltin, 12 ta kumush va 20 ta bronza, jami 49 ta medalni qo'iga kiridi.

Konferensiya yakunida vazirlik va idoralar hamda "Vatanparvar" tashkiloti o'tasida hamkorlikda sportning texnik va amaliy turlarini rivojlanirish va chaqiriluvchilar ishtirokida ommaviy sport ishlarini tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlar belgilab olindi.

Shuningdek, tadbir doirasida tashrif buyuruvchilarga "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi binosi hovlisida tashkilot tizimidagi sport seksiyalari va to'garaklarining ko'rgazmalari namoyish etildi. Ayniqsa, zamonaviy "Mohir mengan" pnevmatik quroldan o'q otish ko'chma tiri" loyihasi taqdimoti barchada katta taassurot qoldirdi. Ushbu yangi loyihami yo'iga qo'yishdan maqsad mahallalar va umumita'lim maktablarida yoshlar o'tasida sportning pnevmatik quroldan o'q otish turi bo'yicha musobaqlarni yuqori saviyada tashkil etishdan iboratdir.

BATAFSIL

MA'LUMOTLAR BERILDI

Urganch harbiy prokuraturasi tomonidan safarbarlik chagiruvi rezervi batalyonida targ'ibot-profilaktika tadbiri tashkil etildi. Unda qatnashchilarga yangi qabul qilingan qonunlar va qonunosti hujjatlari, ularning mazmun-mohiyati va ahamiyati haqida atroficha tushuntirishlar berildi.

Shuningdek, vatanparvarlik, Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'ulari, yurt taqdiriga daxidorlik, faol fuqarolik pozitsiyasi, yoshlarga berilayotgan e'tibor va yaratilgan keng imkoniyat-u imtiyozlar, Qurolli Kuchlar tizimida olib borilayotgan islohotlar, shu bilan birga, huquqbazarliklarning oldini olish ishlarida shaxsxiy namuna va faoliyk ko'sratish mavzularida mufassal so'z yuritildi.

Bundan tashqari, ishtirokchilar bilan ularning orzu va maqsadlari, bu yo'lida yig'in yakunlangandan keyin amalga oshirmoqchi bo'lgan sa'y-harakatlari xususida suhbatlashildi. Bu jarayonda yoshlar o'zlarini qiziqtirgan masalalar bo'yicha harbiy prokuratura xodimlaridan batafsil huquqiy maslahatlar o'dilari.

Mulqotlar qizg'in savol-javoblarga boy bo'ldi.

Adliya podpolkovnigi Nuriddin EGAMKULOV,
Urganch harbiy prokururasi tergovchisi

YANGI OBYEKTLAR FOYDALANISHGA TOPSHIRILDI

23-noyabr – O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining 32 yilligi munosabati bilan respublika bo'ylab keng qamrovli harbiy-vatanparvarlik tadbirlari, ma'naviy-ma'rifiy uchrashuvlar o'tkazilmoqda va qator xayrlı ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, tashkilotning Navoiy viloyati kengashi tasarrufidagi yangi ta'mirlangan viloyat texnik va amaliy sport turlari markazi binosi, Qiziltepa tumani o'quv sport-teknika klubi avtodromi hamda Navoiy avtomobil o'quv sport-teknika klubini binosi va avtodromi foydalanishga topshirildi.

Ushbu obyektlarning ochilish marosimlarida O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi raisi Husan Botirov, raisning birinchi o'rinosari Nurmuhammad Mulabayev, Navoiy viloyati kengashi tizimi xodimlari, mahalliy hokimliklar vakillari, harbiy xizmatchilar va mahalla faollari ishtirok etdilar.



Tadbirda so'zga chiqqanlar zamon talablariga mos ravishda qayta ta'mirlanib, foydalanishga topshirilayotgan ushbu inshootlar yurt ravnaqi va xalq farovonligi yo'lida xizmat qilishi, jumladan viloyat aholisi, ayniqsa yoshlar harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalanishlari, sportning texnik va amaliy turlari bilan shug'ullanishlari hamda mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblarni egallashlari uchun muhim o'r'in tutishini ta'kidladilar.



Shuningdek, tadbirlarda ishtirok etgan mahalliy hokimliklar vakillari va nuroniyalar bunday xayrlı ishga qo'l urgan "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi rahbariyatiga chuqur minnatdorlik bildirdilar.

Yangi inshootlarda yaratilgan shart-sharoitlar barcha tashrif buyuruvchilarda katta taassurot qoldirdi.

Jangovar ruh –

JANGCHINING QUDRATLI QUROLI

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining 32 yilligiga bag'ishlanadi



O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining 32 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan "Vatanparvar" gazetasi va "O'zbekiston armiyasi" jurnali o'quvchilar, harbiy xizmatchilar, jurnalist, yozuvchi va professional ijodkorlar o'tasida jangovar ruhni oshirish, milliy armiyamiz qo'shinlarining harbiy qudrati, jangovar saflarda xizmat qilayotgan Vatan himoyachilarining fidoyiliqi, jasorati, xizmat vazifasini bajarish chog'iда qahramonlarcha halok bo'lgan yigitlar xotirasini abadiylashtirish, o'sib kelayotgan yosh avlodning yuksak ma'naviy-axloqiy, vatanparvarlik sifatlarini oshirish, ular qalbida Vatanga muhabbat, Qurolli Kuchlardan g'ururlanish va harbiy xizmatga chuquq hurmat tuyg'ularini kamol toptirish, ulug' sarkardalarimiz hayoti va faoliyati, qahramonliklari, boy merosini targ'ib qilish orqali harbiy xizmatchilarni vatanparvarlik, yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash maqsadida Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti "Vatanparvar" birlashgan tahririyanati "Jangovar ruh – jangchining qudratli quroli" deb nomlangan publisistik maqolalar tanlovini e'lon qiladi.

TANLOV SHARTLARI

Taqdim etilgan ijodiy ishlar 2023-yilning 29-sentabridan 2023-yilning 15-dekabrigacha (*Word shaklida, 14 shriftda, kirill yoki lotin alifbosida*) "Vatanparvar" birlashgan tahririyaniga yuborilishi lozim.



Manzil: 100164, Toshkent, Universitet ko'chasi, 1-uy.
Elektron manzil: vatanparvar-bt@mail.uz yoki telegram manzili (90) 968-62-08.

Quyidagi hujjatlar ilova qilinishi lozim:
– muallif pasporti (*shaxsini tasdiqlovchi hujjat*) nusxasi;
– muallifning manzili va bog'lanish telefonlari;
– muallifning xizmat (*ish*) joyi.



Murojaat uchun telefonlar:
(71) 260-36-50, 260-32-57.

Eng sara ijodiy ishlar "Vatanparvar" gazetasi sahifalarida "Jangovar ruh – jangchining qudratli quroli" tanlovi rukni ostida chop etiladi.

G'OLIBLARNI MUKOFOTLASH

G'oliblar quyidagi mukofotlar bilan taqdirlanadi:
1-o'rinn (1 ta) – bazaviy hisoblash miqdorining 25 (*yigirma besh*) barobari, diplom va kitoblar to'plami;

2-o'rinn (2 ta) – bazaviy hisoblash miqdorining 20 (*yigirma*) barobari, diplom va kitoblar to'plami;
3-o'rinn (3 ta) – bazaviy hisoblash miqdorining 15 (*o'n besh*) barobari, diplom va kitoblar to'plami;
rag'batlantiruvchi mukofotlar (5 ta) – bazaviy hisoblash miqdorining 10 (*o'n*) barobari, diplom va kitoblar to'plami.

Natijalar "Vatanparvar" gazetasi va saytida hamda mudofaa.uz saytining telegram kanalida e'lon qilinadi.

Tanlov g'oliblari va sovrindorlariga mukofotlar 2024-yil Vatan himoyachilari kuni bayrami arafasida tantanali ravishda topshiriladi.

"Vatanparvar"
birlashgan tahririyanati

OBUNA – 2024

"Vatanparvar" gazetasi
nashr ko'rsatkichi – 114
"O'zbekiston armiyasi" jurnali
nashr ko'rsatkichi – 1273

QUYIDAGI MASALALAR BO'YICHA MEROJAATLARINGIZ BO'LSA, QO'NG'IROQ OILING:



- psixologik qo'llab-quvvatlash;
- oilaviy munosabatlari;
- shaxs sifatida rivojanish;
- psixologik maslahat olish;
- nizoli masalalar bo'yicha psixologik yordam ko'shatish;
- bolalar psixologiyasi;
- stressli vaziyatlar.

HAL QILIB BO'LMAJDIGAN MUAMMO YO'Q,
HAR QANDAY VAZIYATDAN CHIQISHNING
MUNOSIB YO'LI BOR!

— Biz
"Vatanparvar"ni tanladik.
Siz-chi?

@Vatanparvargazetasi_bot
"Vatanparvar" birlashgan tahririyanati bilan bog'lanish uchun telegram bot



SHU SONNING
ELEKTRON SHAKLI